

SHOIR-U SHE'R-U SHUUR

BUGUNNING SHE'RI

“E VOH”: HASRAT EMAS, HAYRAT VA HAVAS

Adabiyot va san'at tadbirlari ishtirokchilarini Davlat rahbari tabriklashi dunyo tajribasida kamdan kam kuzatiladi. Ana shunday noyob qutlovlardan biri o'tgan yili 23-mayda ilk bor tashkil etilgan Erkin Vohidov ijodiga bag'ishlangan adabiy festival qatnashchilariga yo'llangan edi. Unda, jumladan, shunday deyiladi: "O'ylaymanki, bu mo'tabar zotni ortiqcha ta'riflab o'tirishning hojati yo'q. Ulkan shoir va dramaturg, mohir tarjimon va o'tkir publitsist, taniqli jamoat arbobi sifatida Erkin Vohidovning asarlari milliy adabiyotimizning "oltin fondi"dan, yurtimiz va chet ellardagi ming-minglab adabiyot muxlislarining qalbidan munosib va mustahkam o'rin olgani bilan har qancha g'ururlansak, arziydi...

Biz ushbu adabiy festivalni har yili an'anaviy tarzda o'tkazish taklifini qo'llab-quvvatlaymiz".



toleyi yo'lida orom bilmay mehnat va zahmat chekdiki, bu ezgu xizmatlarni aslo unutib bo'lmagay. Shu sababdan Erkin Vohidov xalqimizning qalb ardog'idagi noyob fenomenlaridan biridir.

Prezidentimizning rag'batlari va e'tibori mahsuli o'laroq joriy yilning 18-iyun kuni Bo'stonliq tumani-dagi so'lim dam olish maskanida "Uzreport TV" telekanali, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Toshkent viloyati hokimligi, "Turonbank" hamkorligida ikkinchi bor ijodiy festival tashkil etildi.

Tadbirda jamoat arboblari, san'at vakillari, yozuvchi va shoirlar, adabiyot ixlosmandlari, yosh ijodkorlar hamda Erkin Vohidovning oila a'zolari ishtirok etdi.

An'anaviylik kasb etayotgan ijod bayrami uchun Bo'stonliq tumani tanlangani ham bejiz emas.

Qahramon shoirimiz "Tabrik" she'rida ushbu hududni e'zozlab shunday ta'riflagandi:

**G'azalim beshigi
suluv G'azalkent,
Baytlarim sochilgan
Baytiqo'rg'onsan.**

Festival doirasida yana bir xayrli ishga qo'l urildiki, oromgoh hududida Erkin Vohidov bog'i barpo etilib, shoir haykali ochildi.

Ishtirokchilar shoirning "Yurt-doshim, bog'ingga bir nihol qada, Bu nihol nomini Yaxshilik ata" degan da'vatiga "labbay" deb, "Yashil makon" umummilliy harakatiga o'z hissalarini qo'sharak manzarali ko'chatlar o'tqazishdi.

Jarayonni kuzatar ekanmiz, umr ham boqqa o'xshashi, farzandlar undagi nihollar, gullar bo'lib bo'y cho'zishi xayolimizdan o'tdi. Farzandi

arjumand Xurshid Vohidovning hayoti va faoliyati, otasi xotirasiga ko'rsatayotgan hurmatidan ayon bo'ladi, xalq shoiri faqat adabiyot bo'stonida emas, oilada ham munosib bog'bonlik qila olgan.

Festivalning ochilishida so'zga chiqqan O'zbekiston Qahramoni, ustoz adabiyotshunos olim Ibrohim G'afurov, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, senator, xalq shoiri Sirojiddin Sayyid, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti mudiri Nodir Jonuzoq, Bo'stonliq tumani hokimi Jo'rabek Ahmedov, shoirning o'g'li Xurshid Vohidov, "Uzreport TV" telekanali rahbari Ravshan Jo'rayev ustoz ijodkor Erkin Vohidov ijodining takrorlanmas jihatlarini xususida fikr-mulohazalarini bildirib o'tdilar.

(Davomi 8-sahifada).

BOQIY MEROS



TADQIQ VA TALQIN

Turkistondagi jadidlik harakatiga oid tadqiqotlar orasida xodimul millat Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va faoliyatiga qaratilgan talaygina. Ayniqsa, uning 150 yillik yubileyi arafasida ketma-ket maqolalar, tadqiqotlar e'lon qilib turilibdi, yangi behbudiyshunoslar sahnaga chiqmoqda.

Bugun katta sabr, matonat evaziga yuzaga kelayotgan nashrlarni topish qiyin. Ayni tezkor zamonda shunday ham bo'lishi tabiiydir, balki.

(Davomi 3-sahifada).

Haqiqiy olimni g'avvosga qiyoslash mumkin. U butun umr suv ostiga sho'ng'ib, ilm ummonining dur-u marvaridlarini topishda mashaqqat chekib, ularni yuzaga olib chiqadi. Shu ma'noda, ilmda halollik va kenglikni hayotiy dasturiga aylantirgan olim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, san'atshunoslik fanlari nomzodi, ustoz Sirojiddin Ahmadni chinakam ilm g'avvosi deyish mumkin.

(Davomi 2-sahifada).

ONAJONIM – TABIAT

BALXGACHA BORAYOTGAN BALXI TUTLAR

– Ko'pchilik bir yumushni boshlash oldidan undan manfaat kutadi. Ammo shunday insonlar ham uchraydiki, ularning qilayotgan xayrli ishlarini ko'rib, bular boshqa dunyodan kelib qolgan o'zgacha odamlarimkan deb o'ylab qolasan, – dedi telejurnalist Hamid G'afurov. – Seni ana shunday farishtali odam bilan tanishtiraman. Adabiyot, san'at desang, o'zini tomdan tashlaydiganlar xilidan. U damlagan palovni yegan odam bu mazan ancha yil unutolmaydi.

Hayron bo'ldim. Hamid aka faqat shu fazilatlar uchungina kimgadir tan beradiganlar xilidan emas. Keyin bilsam, Buxoro tumanidagi Shexoncha qishlog'ida yashovchi Hakimjon Aslonov ajoyib bog'bon ekan. Bog'bon bo'lganda ham boshqalar uchun nihol yetkazib, uni o'zi olib borib o'tqazar va parvarishlar, qizig'i, bu uchun birovdan bir chaqa ham olmas ekan. Otaxon xizmatlarni xolis bajaradi. Evaziga hech nima kutmaydi.

Yuzidan nur yog'ilib turgan nuroniyni yaqin do'sti – Shokir boboning uyidan topdik. U respublikada taniqli san'atkorlar

tashrif buyurgan davra uchun maxsus osh damlayotgan ekan. Ishi tig'izligini ro'kach qilib, hammaga uzirni aytayotganlar oshni Hakimjon oshpaz tayyorlayotganini eshitib, ketish fikridan qaytgani ko'rganimizda uy egasi bizga ko'zini qisib qo'ydi: "Quling o'rgilsin osh bo'ladi-da, uka!"

Bu davra tugagach, Hakimjon bobo Buxoro shahri markaziga yo'l oldi. Qurbon hayiti munosabati bilan uning o'g'li bozorning old ho'kizini so'yib, go'shtini ehtiyojmandlarga ehson qilayotgan ekan.

(Davomi 2-sahifada).

ILM YO'LI

XASTALIK GENOMINI O'QIGAN OLIM

Tabiat yero'sti-yu yerusti boyliklari bilan siylagan mamlakatlari bisyor. Birovi neftga o'xshash boyliklari, boshqasi bepoyon o'rmonlari, serhosil dalalari, yana biri dengizi bilan mashhur. Ammo bunday imkoniyat bilan hamma har yil xilda siylanmagan. Hududi kichik, na nefti va na oltini bor, biroq iqtisodiy rivojlangan, dunyoning kuchli o'ntaligiga kiradigan, aholisi boy va farovon yashaydigan davlatlar ham mavjud.

Xo'sh, ular bunga qanday erishdi? G'oya, bilim, fikr va intellekt evaziga! G'oya iste'dodli, ilmli odamda bo'ladi. Shuning uchun, avvalo, o'sha "noyob miyalar"ni tarbiyalashga, iste'dod uchqunini alangalatishga e'tibor kerak. Bu har yili byudjetdan ilmiy tadqiqotlar uchun milliardlab mablag' sarflash, deganidir. Natijada yangicha g'oyali, o'zgacha fikrlaydigan yosh olimlar yetishib chiqadi. Ularning yangi texnologiyalar, ixtiro va kashfiyotlari mamlakat iqtisodiy rivojiga salmoqli hissa bo'lib qo'shiladi.

Keyingi yillar yurtimizda ham ilm-fanga e'tibor kuchaydi. Katta islohotlar amalga

oshirilyapti, yosh olimlar xorijda o'qitilib, ilmiy markazlar, institutlarda ijodiy muhit shakllanmoqda, ilmiy laboratoriyalarni zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlashda yangicha yondashuvlar qo'llab-quvvatlanmoqda. Natijada dunyo tan olayotgan, jahon minbarlarida e'tirof etilayotgan o'zbek olimlari safi ortib bormoqda. Bular orasida xorijning nufuzli universitetlarida malaka oshirib, xalqaro konferensiyalarda ishtirok etgan umidli yosh olim, genetik Mirzakamol Ayubovning ham o'rni bor.

U bir guruh yosh genetiklarga bosh bo'lib, kovidning 33 ta genomini o'qishga muvaffaq bo'ldi. Yurtimizda kovidga qarshi vaktsina ustida ishlayotgan o'zbek olimlari qatorida Mirzakamol ham bor. Mirzakamol Ayubov Xalqaro paxta tadqiqotchilari assotsiatsiyasi (ICRA – International Cotton Advisory Committee)ning ICRA-ASIA Young Scientist Innovation Medal-2023" mukofotiga sazovor bo'lgan.

(Davomi 2-sahifada).



Boshlanishi 1-sahifada.

Mirzakamol Chustda, ishchi oilasida tug'ilgan. Ixtisoslashtirilgan yo maxsus maktabda o'qigan emas. Oddiy maktabdagi fidoyi o'qituvchilar ta'limi, farzandi kelajagiga qayg'urgan ota-ona tarbiyasi va o'zining intiluvchanligi bilan muvaffaqiyatga erishdi.

– O'quvchilik paytlarim adabiyotga, she'riyatga ixlosim baland edi, – deb eslaydi Mirzakamol. – She'r mashq qilib turardim. Ona tili va adabiyotdan fan olimpiadasi borardim. "Kim bo'lsam ekan?" degan mavzudagi inshoda "Jurnalist bo'laman!" deb yozardim. Otam oliy ma'lumot olmagan, lekin bizni – besh farzandini o'qitdi. Kelajakda o'qimishli, ziyoli bo'lishimiz uchun hamma sharoitni yaratib berdi. O'rtoqlarim dalaga mol boqishga chiqib ketsa, biz dars tayyorlab, kitob o'qirdik. Otamga, qo'y olib bering, jo'ralarim bilan boqaman, desam, bozorga borib men uchun yozuv stoli va stul olib kelgan.

– **Taniqli adib Shukur Xolmirzayevga "Yozuvchi bo'lmaganingizda kim bo'lar-dingiz?" deb savol berishganida, u kishi "Yo biolog, yo arxeolog bo'lardim. Chunki bu ikki fan ham hayotning boshi va oxiri bilan shug'ullanadi. Hayot mohiyatining siri uning boshi va oxirida yashirangan", deb javob bergan ekan. Darhaqiqat, ko'z ilg'amas genda hayot tarixi namoyon bo'ladi. Jurnalist bo'lish fikridan qachon qaytdingiz? Biologiya yo'nalishidan ketishgizga nimadir sabab bo'ldimi?**

– Kunlarning birida kimyo o'qituvchimiz to'garak o'chayotgani va xohlovchilar bo'lsa, qatnashishi mumkinligini aytib qoldi. Tabiiyki, maktabdagi a'lochi o'quvchilar qatori men ham yozildim. Kimyo muallimi bilimli, fanga qiziqitira oladigan zukko ustoz edi. Bir kuni yonimga kelib: "Bilasanmi, tushimda sen olimpiadaga boribsan va biz g'olib bo'libmiz", dedi. Bu bir rag'batmidi yo rostdan ham ustozim shunday tush ko'rganmi, aniq bilmayman. So'rashga istihola qilganman. Lekin o'sha kundan olimpiadaga qattiq tayyorgarlik ko'rdik, kimyo fanini chuqur o'rganishga kirishdim va muallimimning tushi o'ng keldi. Olimpiadada g'olib bo'lgach, tibbiyot institutiga o'qishga kirish fikri uyg'ondi. Endi kimyo faniga qo'shimcha biologiyadan ham yaxshi bir ustoz sabog'ini olish kerak, degan qarorga keldim.

Tumanimizning tog' yonbag'rida G'ova degan so'lim qishloq bor. O'sha yerdagi kuchli biologiya o'qituvchisi bolalarni institutga tayyorlashi va u kishining ko'plab o'quvchilari oliy o'quv yurtiga kirayotgani haqida eshitib qoldim. Men ham borib, o'sha o'qituvchi – Yo'lvoy domlaga shogird tushdim. So'lim hovlida, daraxtlar ostida tizilib o'tirib, biologiyadan saboq olardik. Ko'rsangiz, hovli haqiqiy biologning uyi. Domla o'z ko'llari bilan ekan turli-tuman gullar, bir tupda ikki-uch xil meva pishib turgan daraxt, noyob o'simlik turlari barq urib yashnab yotardi. Domlani darsni juda qiziqarli o'tishi e'tiborimni tortgan. Mashg'ulot payti charchab yo zerikib qolmasligimiz uchun dunyo biologlarining kashfiyotlari, ixtirolari va boshqa qiziq-qiziq voqealar, Nobel sovrindorlari hayoti haqida kutilmagan ma'lumotlarni aytib berardi. Bizga bularni aytish uchun domla har kuni nechtalab gazeta va jurnal, kitob varaqlagan bo'lsa...

Bilasizmi, ba'zan bir og'iz gap taqdirning boshqa o'zanga oqishiga sabab bo'lar ekan. Avvalo, taqdiri azal-ku, ammo o'zini "katta shoir" his qilib yurgan bir o'smiring bugungi

XASTALIK GENOMINI O'QIGAN OLIM



yutuqlariga, avvalo, ilk ustozim Yo'lvoy muallim, qolaversa, Amerikada o'qib, dunyo ko'rgan olim Ibrohim aka Abdurahmonov sababchi.

Qaysi universitetni tanlasam ekan, deb turgan chog'im ustozim Yo'lvoy muallim: "Mening besh farzandim ham biolog, birovdan kami yo'q, sen ham Milliy universitetning biologiya fakultetiga o'qishga kirgin", deb maslahat berdi. Milliy universitetmas-u, Namangan davlat universitetining biologiya fakulteti bakalavriatini davlat granti asosida bitirdim. Keyin magistraturani Milliy universitetning genetika kafedrasida davom ettirish uchun imtihon topshirdim. Ertasiga Ibrohim aka Abdurahmonov ishlayotgan bioorganik kimyo instituti qoshidagi genom texnologiyalari markazi laboratoriyasiga bordim. Shu yerdagi Ibrohim aka bilan uchrashib qoldik. U kishi "Bizda ishlaysanmi?" deb so'radi va o'sha kuniyoq yordamchisiga hujjatlarimni rasmiylashtirishni buyurdi. Shu bilan universitetda o'qish boshlanmasdan o'qilgan laboratoriyada ish boshladim.

Bu yerdagi xodimlarning ko'pchiligi Amerikani yetakchi laboratoriyalarida tahsil olib qaytgan olimlar edi. Tabiiyki, mendek yosh magistrant biroz hayiqqanman. Birga ishlay olamanmi, yo'qmi degan hadik bo'lgan ichimda. Ammo hamkasblar yo'l-yo'riq ko'rsatib, birinchi navbatda ingliz tilini o'rganishimni tavsiya etishdi. Magistraturada o'qish asnosida ingliz tili kurslariga qatnadim. Turar joyim Toshkentning bir burchagida, ishxonam boshqa tarafdagi, o'qishim ikkalasiga ham teskari tomonga. Shu bois asosiy vaqtim yo'lda o'tardi. Tramvayda ketayotib, kuniga ingliz tilidan kamida ellikta so'z yodlardim. Qanchalik murakkab bo'lmasin, tilni sohaga oid adabiyotlar bilan tanishish darajasida o'zlashtirdim.

Magistraturada o'qib yurgan kezlirim rahmatli domlamiz akademik Jo'ra Musayev menga ilmiy rahbarlik qildi. Xullas, laboratoriya

va universitet orasida yuraverib domlalar e'tibori va genetikaning "qaynab turgan katta qozoni"ga tushdim. Keyin to'qima kulturas laboratoriyasida ishladim. Bu O'zbekistonda yagona hisoblanardi. Biz unda hatto hujayradan yangi o'simlik olish imkoniyatiga egamiz. Men u yerdagi ustoz Xurshida Ubaydullayeva qo'lida ishladim va magistrlik bitiruv ishimni "Bo'rtna nematodalar" mavzusida yoqladim.

– **Mirzakamol, bilishimcha, siz xorijiy davlatlarda malaka oshirish, katta-katta loyihalarda qatnashish imkoniyatiga ega bo'lgan yosh olimlardan birisiz, shu jarayonlar haqida ham gapirib o'tsangiz.**

– Ingliz tilini o'rganayotgan paytlarim Hindistondagi rivojlanayotgan davlatlar ilmiy xodimlarini ingliz tiliga o'qitish ITEC xalqaro til o'rganish markazidagi mashg'ulotlar uchun ro'yxatdan o'tib qo'ygandim. Bu xorijga ilk chiqishim bo'lgan. Uch oy u yerdagi malaka oshirib, inglizchada bemalol gaplasha oladigan bo'lib qaytdim. 2012-yilda markazimiz yosh olimlarni Amerikaga o'qishga jo'natadigan bo'ldi va ular safida Missisipidagi Qishloq xo'jaligi departamentida genom tadqiqotlari bo'yicha olti oy malaka oshirdim. Mengacha ham u yerdagi markazimizdan 10 ga yaqin yosh xodim borib o'qib kelgandi. U yerdagi Sukumar Saxa ismli mashhur olimning qo'lida ishladim. O'simliklardagi qizil nurlarga javob beruvchi fitoxrom V geni o'chirib qo'yilsa, u erta gullashini paxtada sinab ko'rish texnologiyasini o'rganib qaytdim. Bu mening PhD dissertatsiyamga mavzu bo'ldi. Ilmiy ishini ingliz tilida yoqladim.

Mazkur texnologiyaning afzalligi nimada? Biz paxta yetishtiruvchi davlatlar ichida shimoliy hudud hisoblanamiz, shuning uchun bizda paxta qancha erta gullasa, shuncha erta ochiladi. Ya'ni, hosil kech kuzga qolib ketmaydi, sifati ham yaxshilanadi.

2014-yili Hindistonning Patancheru provinsiyasida joylashgan ICRISAT tashkilotida o'n besh kunlik "Yangi avlod sekvatorlari" kursida o'qib kelgandim. 2017-2018-yillarda yana Amerikaga malaka oshirishga bordim. U yerdagi bir yilda 10 ta loyihada qatnashdim. Xorijiy jurnallarda maqolalarim chop etildi. 2019-yili Avstriya tibbiyot universitetiga Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshidagi xalqaro molekulyar allergologiya markazi tomonidan yuborildim va malaka oshirib qaytdim. Yana o'sha yili AQShga – Alabamaga qishloq xo'jaligi va mexanizatsiya universitetiga borib bilimimni mustahkamlab keldim.

– **Xorijda qolib ishlash haqida takliflar ham bo'lganmi?**

– Takliflar bo'lgan, lekin qishloqda o'sgan, shaharda turib, o'z qishlog'ini tez-tez sog'inadigan, tug'ilib o'sgan uyiga doim talpinadigan men kabi odamning chet ellarda qolib ketishi qiyin. Bunga hech qachon rozi

bo'lmaganman. Ustozim Ibrohim akaga ham bu taklifni necha marotaba berishgan, ammo u kishi Vatanga qaytib, O'zbekiston uchun, o'zbek ilm-fani rivoji uchun shuncha jon kuydirib, iqtidorli yoshlarni qo'llab quvvatlab, genetika va bioinformatika maktabini shakllantirib, ortidan qanchadan qancha yoshlarni ergashtirib kelayotgani biz kabi yoshlarga, albatta, katta dars bo'lgan. Shu sabab chet elda ishlash qolish haqida o'ylab ham ko'rmaganman.

– **O'tgan yillarda butun dunyoda, jumladan, yurtimizda ham pandemiya balosi insoniyatni xavotirga soldi, hushyor torttirdi. Shunday vaziyatda bioinformatika va genomika markazi qanday ishlarni amalga oshirdi?**

– 2020-yilda virus aniqlangandan so'ng, biz Sog'liqni saqlash vazirligiga yordam berish maqsadida hamkorlikda ish boshladik. O'zim o'sha ayni virus ko'paygan, vaziyat yomonlashgan davrlarda laboratoriyada bir oy virusologiya instituti shifokorlari bilan PZR (polimer zanjir reaksiyasi) orqali virusni qanday aniqlash, reagentlar bilan qanday ishlash bo'yicha hamkorlikda ish olib bordim. Chunki bu bizning tibbiyotimiz uchun ham yangilik edi. O'shandan keyin markazimizning bir guruh yosh olimlari birgalashib virusning genomini o'qishni boshladik. Men guruh rahbari edim.

Bu virus juda tez mutatsiyalashib borardi. Genomni o'qishdan maqsad – virusning tabiatini aniq bilish edi. Ko'pgina rivojlangan davlatlar virus genomini o'qiy boshladi. Biz ham o'zimizdagi virusning 32 ta genomini o'qish, buni xalqaro genlar va genomlar banki bazasiga joyladik. Shundan so'ng bizga Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotidan telefon qilib, minnatdorlik bildirishdi. O'rta Osiyoda faqat biz va qo'shni Qozog'istondagina bunday ish amalga oshirildi. Qo'shnilarimiz yigirmadan ziyod genom o'qishdi.

Genomni o'qish virusga qarshi kurashishga, davolashga, shunga qarab vaktsinalar yaratishga imkon beradi. Masalan, 2020-yilda faqat Uxan shtammi tarqalgan bo'lsa, hozirgi kunda, bilamizki Britan, Afrika, Braziliya va eng og'ir asoratlarga olib keladigan Hindiston shtamlari mavjud. Shuning uchun bu yo'nalishda hali olib boriladigan tadqiqotlar talaygina.

Xabaringiz bo'lsa kerak, o'zbek olimlari ham vaktsina ishlab chiqarishga kirishishgan, bir qancha institutlar hamkorligidagi guruhda bizning markazdan ham olimlar qatnashyapti. Jumladan, men ham shu guruhda borman. Bizning vaktsinamiz o'simliklar asosidagi yeyiladigan vaktsina bo'lib, u o'zining innovatsionligi bilan farq qiladi. Ushbu vaktsinadan Afrikaning og'ir ahvolda yashovchi aholisini emlashda ham foydalanish mumkin.

Ayni paytda pomidor asosidagi vaktsina urug'larini ko'paytirish va kerakli dozalarni aniqlash ustidagi tadqiqotlar davom etmoqda. Hozirda yeyiladigan vaktsinalar sinovdan o'tkazilyapti. Yaqin orada yurtimiz dorixonalaridan xarid qilish imkoniga ega bo'lamiz.

– **Nega bizning yurtimizdan Nobel mukofoti sovrindorlari chiqmaydi? Bunga sabab salohiyatning yetarli emasligimi? Yo e'tibor berilmasligimi yoki yana boshqa tomonlari ham bormi?**

– Amerikaga borganimda juda ko'p Nobel mukofotini olgan olimlar bilan shaxsan ko'rishdim. Alabama universitetida Nobel olgan olimlar har yili bir marta yig'ilib, konferensiya o'tkazishadi. Bu nima degani? Bu boshqa yosh olimlarga motivatsiya berish degani! Bizda ham hozir akademik olimlarimizning o'qigan maktabiga, qishlog'i, mahallasiga borib yoshlar bilan uchrashuvi yo'lga qo'yildi. Bu ilm-fanga bolalarni qiziqitirish, ilhomlantirish uchun juda yaxshi uslub. Tarixda bizning ham buyuk alloma bobolarimiz o'tgan. Faqat ular Nobeldan oldin tug'ilishgan.

Ammo tushkunlikka tushmasligimiz kerak, bizda salohiyat yetarli, buyuk genlarimiz bor, bir kun bizdan ham nobelchilar, albatta, chiqadi. Hozir ham ulug' olimlarimiz ko'p. Ehtimol, Nobel ko'mitasi bizning olimlar haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lmastiki mumkin. Chunki biz genomni o'qiganimizda xorijliklar hayron qolishdi. Bizda shunday olimlar, imkoniyatlar borligiga ishonmaganlar ham bo'ldi, hatto.

– **Ijodkorning tasavvuri keng bo'ladi. Sizing ijodga oshnolingiz ilmiy bilan shug'ullanishga qay darajada yordam beryapti? Umuman, olim uchun ijodiy tasavvur kerakmi?**

– Albatta, kerak. Olim o'z kashfiyotining kelajagini tasavvur qila olmasa, u boshqalarni qanday ishonтира oladi?! Har bir g'oyani tasavvurda pishitib, keyin ishga kirishsa, menimcha, natija ham ijobiy bo'ladi. Ijodni tushunadigan, og'zaki va yozma nutqi ravon olimlar har doim old qatorda turgan. Axir, ilmiy ishining mohiyatini bayon qilib, maqola yozolmasa, fikrini jamoatchilikka qanday yetkazadi?! Masalan, bizning sohani o'laylik, paxtaga oid kashfiyotlarni fermaga oddiy tilda tushuntimasangiz, u har doim ham ilmiy atamalarni anglamasligi mumkin. Tushunmagan narsasiga esa, qiziqmaydi. Matematika, fizika, kimyoda ham shunday.

– **Oxirgi marta qanday kitob mutolaa qildingiz?**

– Otam bizni bolalikdan kitobga oshno qilgan. Shuningdek, diniy bilim ham olsin, deb Navoiy, So'fi Olloyordan baytlar o'qib, mag'zini chaqishga harakat qilardi. Boshlang'ich sinf o'qituvchimi ham, adabiyot muallimamiz Adolat aya ham mutolaa, adabiyotga katta mehr uyg'otgan. Balki shuning uchun nimalardir qoralab, jurnalist bo'laman, deb yurgandirman. Yaqinda Isajon Sultonning hikoyalari va "Genetik" nomli romanini o'qidim. Shuningdek, menga tengdosh bo'lgan shoir Behzod Fazliddin she'rlarini o'qib turaman.

– **Ilimsiz va ijodingizga baraka tilab, samimiy suhbat uchun gazeta mush-tariylari nomidan tashakkur aytamiz.**

Shahnoza ROFIYEVA suhbatlashdi.

Boshlanishi 1-sahifada.

Otaxon saxovat desa, gul-gul yashnarkan. Men undan intervyu olish dardida-yu, u esa "Go'shtni o'zim tarqataman", deya el xizmatida.

– Shamsiddin bobo Uzoqovdan butun umr minnatdorman, – deydi Hakimjon Aslonov. – Bundan o'ttiz yil muqaddam balxi tutni payvandlashni shu insondan o'rganganman. O'sha xosiyatli kundan buyon tomorqamda balxi tut ko'chatlarini o'stirib, O'zbekistondagi ziyoratgoh-u qadamjolarga o'z qo'lim bilan o'tqazaman.

Romitan tumanida joylashgan Xo'ja Za'faron qadamjosiga kirishingiz bilan tut daraxtlariga ko'zingiz tushadi. Chunki ushbu maskanga bundan besh yil muqaddam Hakimjon akaning sa'y-harakati bilan 40 tup payvandi balxi tut nihollari o'tqazilgan edi. Hozirgi paytga kelib ular bo'y cho'zib, hosil bera boshladi. Ushbu tumanning cho'l hududida yana bir muborak joy – Xo'ja Ubbon ziyoratgohi bo'lib, to hozirga qadar bu yerda ham 60 tup shifobaxsh tut o'stirilmoqda. Hakimjon aka ekilgan nihollar to qaddini rostlab olguniga qadar ularning holidan tez-tez xabardor bo'lib turadi. Bu fazilati, albatta, tahsinga loyiq. Fidoyi insonning ezgu ishlari birgina Buxoro hududi bilan cheklanib qolmaydi. U mamlakatimizning boshqa viloyatlarida ham xuddi shunday savobli ishlarini davom ettirib kelmoqda.

– Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Sulton Uvays Qaraniy, Surxondaryodagi Hakim

Termiziy, Iso Termiziy, Sulton Saodat majmuasi, Xo'jayi Pok qadamjosi, Qashqadaryodagi Abdulloh ibn Muborak, Abu Muin Nasafiy, Hazrati Bashir nomi bilan atalmish bir qancha tabarruk maskanlarga ham nihollar olib borib o'tqazganiga o'zim guvoh bo'lganman, – deydi u kishiga devor-darmiyon qo'shni Tolibjon Rahmatov. – Shu yilning fevral oyida Hakimjon aka o'z tomorqasida parvarish qilgan balxi tutlaridan to'rt tupini olib, umra safari chog'ida muqaddas Madina shahridagi xurmozorlar atrofiga ham o'tqazib qaytdi. Shu bahonada u bir yil avval yaqin insonlari orqali ulug' joyga yetkazilgan ko'chatlar baravj rivojlanayotganini o'z ko'zlari bilan ko'rdi.

Hakimjon Aslonovning hovlisi qarshisida 17-maktab joylashgan. Ta'lim maskanining yer maydonida qahramonimiz tashabbusi bilan barpo qilingan bog'dan bugun bilim

dargohi jamoasi va o'quvchilar bahramand bo'lishayotir.

Benazir inson Hakimjon Aslonov nafaqat bog'dorchilik, balki o'zining hayotiy tajribalari asosida bitilgan ibratli hikoyatlar, to'plangan rivoyatlar kitobi, qolaversa, she'riy mashqlari asosida chop etilgan to'plamlari orqali ham hurmat qozongan.

Hayot yo'li ko'pchilikka o'rnak otaxon ichimizda qolgan savolga bir hikoyat orqali javob berdi:

"Anushervon bir kuni ov bahonasida aylanib yurar ekan, yong'oq ekayotgan keksha bir cholini ko'rib qolibdi:

– Hoy, otaxon, nima ekyapsiz?

– Yong'oq.

– Yong'oq kech hosilga kiradi. U qachon voyaga yetadi-yu, siz qachon uning mevasidan bahramand bo'lasiz?



“ Biz o'zimizni tabiat qo'yida baxtli his qilamiz, chunki o'zimizga qaytamiz.

Mixail PRISHVIN

”

BALXGACHA BORAYOTGAN BALXI TUTLAR

– Men o'zim uchun emas, ortda qolayotganlar uchun ekyapman. Chunki avvalgilar ekanini biz yeganimiz kabi, biz ekanimizdan keyingilar ham bahramand bo'lmog'i lozim.

Cholning javobidan nihoyatda ta'sirlangan Anushervon unga ming tanga in'om qilibdi.

– Siz menga mehnatingning samarasini ko'rsanmi-yo'qmi, degan edingiz, – debdi shunda qariya lutf qilib. – Ko'rib turganingizdek, hech kimning daraxti menikichalik tez hosil bermagan.

Anushervon uning topqirligidan xursand bo'lib, yana ming tanga beribdi.

– Boshqalarning daraxti bir yilda bir marta hosil bersa, podshohi olamning nazari sharofati bilan mening daraxtim ikki marta hosil berdi, – debdi bunga javoban chol.

Sohibkorning donoligiga qoyil qolgan Anushervon yana ming tanga ehson qilibdi".

Hakimjon bobo nafaqaga chiqqach, choyxonachi chollar qatoridan bo'lib qolishi mumkin edi. Lekin u savob nihollarini o'tqazyapti. Ularning ko'pi hosilga ham kirgan. Bu balxi tutlar nafaqat boshqalar uchun shirindan shakar meva, shu bilan birga ona tabiatimizni kislrod bilan to'yintiryapti. Prezidentimiz ilgari surgan "Yashil makon" loyihasida faol qatnashayotgan otaxon tengdoshlari va yoshlarga ibrat bo'lmoqda.

Obid QO'LDOSH, jurnalist



TADQIQ VA TALQIN

Boshlanishi 1-sahifada.

Olim tomonidan yozilgan “Mahmudxo’ja Behbudiy (hayoti, faoliyati, vafoti)” kitobi esa ayni shunday gavharga qiyoslangudek qiymatli nashdrir.

“Mahmudxo’ja Behbudiy” kitobi ikki qismdan iborat:

Birinchi qismdan ilmiy tahlillar o’rin olgan. Kitob mundarijasidan anglash mumkinki, muallif alloma hayoti va faoliyatining barcha nuqtalarini birlashtirib, uning yaxlit manzarasini gavdalanitirib bergan.

Ikkinchi qismga Behbudiyning “Vaqt”, “Ulfat”, “Siroti mustaqim”, “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Tuijor”, “Samarqand” nashrlarida bosilgan maqolalari, maktublari kiritilgan. Shuningdek, ilk bora adib asarlarining fixristi va arxiv materiallari hamda 45 nomdagi tarixiy surat joy olgan.

Mazkur nashrda Behbudiy hayoti va faoliyatining o’rganilishi borasidagi yangi qarashlar, faktlar, tahlillarni ko’ramiz.

“Uyg’onish” bobida Behbudiyning umr yo’lini belgilab bergan omillar sanab o’tiladi. Haj safari, Rusiya sayohati, Abdurashid qozi Ibrohim, Muso Jorulloh Begiyev, Ismoilbek G’asprali bilan muloqotlar, “Ittifoqi musulmin” firqasidagi faoliyati, Rijoiy Akramzoda, Ziyoposho, Nomiq Kamol, Abdulhaq Homid asarlaridan ta’sirlanish, N.S.Likoshin, A.Gesket, N.P.Ostromov, V.Vyatkin bilan munosabatlar, xullas, bularning bari uning dunyoqarashini charxladi, dunyoga yangi nazar bilan qarashga undadi. Behbudiyning jadiclik dasturidagi birinchi maqsadi “Peterburgning fотиhasini kutmasdan” har qanday masalani Turkistonning o’zida hal qilmoq uchun “Idorayi diniya va doxila”ni tashkil etish edi. Har biri milliy hurlik sari bir qadam bo’la oluvchi rejalar aynan shu “idora” doirasida amalga oshirilishi ko’zlangandi.

Kitobdan o’rin olgan “Rejalashtirilgan siyosiy qotillik” sarlavhali bobda muallif Behbudiy o’limi bilan bog’liq chigalliklarga yechim topgan. Unda ishonchli manbalarga tayanilgan holda, “Muassislar majlisi” tomonidan “Versal sulh kongressi”ga yuborilgan tarixiy telegramma matni to’liq e’lon qilingan. Unda “Mahmudxo’ja Behbudiy, Muhammadquli O’rinboyev, Mardonquli Shomuhamedov, Saidnosir Mirjalilov, Mustafo Cho’qayev, Ubaydulla Xo’jayev Bokuda uchrashib, Istanbul–Vena orqali Parijga – “Versal sulhi” kengashida, so’ngra Bern shahrida o’tadigan musulmonlar anjumanida ishtirok etish”lari batafsil yoritib berilgan.

Behbudiyning “Rusiya–Yaponiya muhorabasi”, “Xodimul millat muhtaram mavlaviy Abdurashid afandi hazratlarinala”, “Faryodi Turkiston”, “Rusiya musulmonlari raislariga bayoni hol”, “Qabristoni musulmin”, “Asobat” risolasi haqida, “Masjidi jome”, “Ochiq maktub”, “Tuz mavsumi”, “Buxoro”, “Do’stilikmi, dushmanlik?” singari yangi topilgan maqolalari behbudiyshunoslik uchun qimmatli ma’lumotlar beradi.

Asarning ilova qismida Mahmudxo’ja Behbudiy qalamiga mansub 13 darslik, 3 ilmiy asari (nashr qilinmagan), 4 nomdagi badiiy asar va tarjimalar, 6 loyiha, alohida mavzularga bag’ishlangan 214 ta maqola, 48 nomdagi turkum maqola, 6 ta forsiycha maqola – jami 295 nomdagi asar ro’yxati o’rin olgan.



Mahmudxo’ja Behbudiy uy-muzeyidan lavha.

Kitobda biz boshqa ilmiy asarlarda uchratmagan holatni ko’ramiz. Muallif Behbudiy hayot va faoliyati manzaralarini faqatgina tarixiy fakt, raqamlar, ilmiy ma’lumotlar bilangina ochib berish bilan cheklanib qolmasdan, balki hazrat Behbudiy ruhiyati, shaxsiyati, siyratini tasvirlab bergan.

Kitob bugungi jadidshunosligimiz uchun zarur bo’lgan uslubda yozilgan. Masalaga keng qamrovda: tarix, adabiyot, siyosat, falsafa sohalaridagi qarashlarni birlashtirgan holda munosabat bildirilgan. Mahmudxo’ja Behbudiy tilga olgan va uchrashgan tarixiy shaxslar haqida qisqacha ma’lumotning har biri alohida tadqiqot uchun xamirturush bo’ladigan tarzda berilgan. “Mahmudxo’ja Behbudiy” kitobi, shubhasiz, jadidshunoslik ummonidan terilgan bebaho durlar shodasi bo’lib qoladi.

Nodira EGAMQULOVA,
filologiya fanlari bo’yicha
falsafa doktori,
dotsent

ZARDA

TORNING CHO‘MICH DAN FARQI

(Oradan yigirma yil o’tdi...)

Hurmatli tahririyat! Mening ushbu achchiq-chuchuk bitiklarim bundan rosa yigirma yil avval qog’ozga tushgan, kitob holida chop etilgan ham edi. O’shanda ushbu maqola san’at ixlosmandlari, konsert tashkilotchilari orasida jiddiy muhokama bo’lgan, qo’shiq shinavandalaridan ko’plab maktublar olganman.

Oradan shuncha yil o’tdi. Milliy qo’shiqchilik san’atimiz yanada rivoj topdi, sahnalarimizda yangi “yulduz”lar paydo bo’ldi. Ko’p qo’shiqlar xalqimizning ma’naviy merosiga aylandi. Ammo men maqola va xatlarimda tilga olgan ko’p qusurlar so’lim gulzordagi bangidevonadek bugun ham yashab kelayotgani bag’oyat ajablanarlidir. Ba’zi qusurlar nainki tuzatilmadi, aksincha, kuchayib, rivojlanib ketdi. Beparvo turaversak, ahvol bundan ham yomon bo’lishi aniq. Shu ma’noda bu mavzuga yana bir bor qaytishni, ko’ngilni g’ashlayotgan muammolardan gazetamizning bugungi o’quvchilarini ham xabardor qilishni lozim topdim.

MUALLIF

San’atda yulduz bo’lish kimga yoqmaydi deysiz. Ammo chinakam yulduz bo’lish boshqa, yulduzlik kasaliga chalilib, uni qanday davolashni bilmay yurish boshqa. Hayotlik chog’larida Komiljon Otaniyozov, Jo’raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Mukarramaxonim Turg’unboyevani hech kim “San’atimizning porloq yulduzi”, demagan. Bunga ehtiyoj ham bo’lmagan. Chunki ular hayotda ham, sahnada ham o’ta oddiy bo’lishgan, yulduzlik kasaliga chalinishmagan. Odamlar orasida el qatori umrguzaronlik qilishgan. Yurish-turishda, kiyinishda, muomala madaniyatida zarracha bo’lsin alohidalikka, kibr-u havoga berilganlarini eslay olmaymiz.

Ulug’ san’atkorlar katta-yu kichikka, boyvachcha-yu o’rtaholga teng munosabatlari, oddiy odamlarga ko’proq e’tibor berishlari bilan ham nom qozonishgan. El xizmatida bo’lganlarida, nonumonosib xatti-harakatlar qilishmagan, izzattalab bo’lishmagan. Aytilgan joyga vaqtida o’zlari, tan qo’riqchilarsiz “Assalomu alaykum”, deb kirib boraverishgan, to’y egalarini, qarindoshlarni o’rtaga to’plab, “operatsiya” qilib, pul yig’ishmagan. Ko’zlari to’q bo’lgan. Pul degan sabil qolgur kimga yoqmaydi deysiz, ammo ular bu ajdahoning makkor jozibasiga uchishmagan.

Ma’murjon Uzoqov, Jo’raxon Sultonovlar paytida sahnada hech kim soxtakorlik qilmagan. Ovoz, iste’dodi bor odam o’rtaga chiqqan, tumonat tinglovchini sel qilib qo’shiq kuylagan. Ovoz yo’q, umrida qo’liga cholg’u ushlamagan odamlar esa boshqa, qo’laridan keladigan ish bilan shug’ullanishgan. Ya’nikim, oshpaz oshpazligini, novvoy novvoyligini qilgan. Hofizlar esa ularga qo’shiq kuylashgan.

O’sha paytlari ham bog’larimizda anvoyi gullar barq ochilib turgan, kerak bo’lsa, quchoq-quchoq olib kelish mumkin edi. Ammo konsert zallarida bugungiday soxta gulbozlik urf bo’lmagan. Qarindosh-urug’, tog’a-jiyan, quda-anda, endigina yo’lga kirgan nabira-jujuqchalar sahnaga chiqib, qo’shiq kuylab turgan hofizning bo’yniga gulchambar ilishmagan, cho’pillatib o’pishmagan, egniga kimo’zarga zarchop yopishmagan.

Bu ham mayli, avvallari hofiz deganingiz sahnadan bemalol pastga tushib, oldingi qatorda savlat to’kib o’tirgan hesh-u aqrabolariga, mahalla cho’yxonasidagi ulfatlariga egilib-bukilib salom bermagan, volidayi muhtaramasining yoniga kelib, xuddiki onasi bilan tasodifan shu joyda uchrashib qolganday, bir-birlarini bag’rilariga bosishmagan. Ona ham o’g’il san’atkor bo’lganini, uncha-muncha xirgoyi qilib turishini xuddiki bugun, shu yerda tasodifan bilib qolganday, bolaizorini yalab-yulqamagan. U paytlarning onalari ancha vazmin bo’lishgan sheklili-da.

Avvallari qo’shiq kuylanayotganida birov ovoz chiqarmagan, sahnada turgan hofiz bolaning oldiga ko’tarilib, belidan mahkam ushlab suratga tushmagan. Qulog’iga bir nimalarni shivirlamagan. Tomoshabinlarning qiy-chuvidan ilhomlangan san’atkor birodarini dast ko’tarib, bir-ikki aylantirib qo’ymagan. Negalgini taxmin qilish mumkin. Ular, nazarimda, konsert bilan sirkdagi masxarabozlikning farqiga borishgan. Zavqlari kelib ketsa “do’st” devorishgan-u shu bilan hovurlari bosilgan.

U paytlari hofizlar sahnada qo’shiq kuylashgan. Og’izlarini shunchaki qimir-latib turishmagan. Odob-axloq haqida ma’ruza o’qishmagan. Ashula qolib ketib, hamkasb do’stlarining bog’iga tosh, kesak otishmagan.



Ma’murjon Uzoqov, Jo’raxon Sultonov kabi ulug’ ustozlar, eh esiz, “klip” nimaligini bilmay o’tib ketishdi-ya...

Komiljon hofiz, Ma’murjon hofizlar paytida televideniye, radio bu qadar rivojlanmagan edi. FM kanallari va ulardagi so’zbozlik birovning xayoliga ham kelmagandi. Bitta qo’shiq bugungidek bir kunda yigirma-o’ttiz marta emas, hafta-o’n kunda bir marta efriga qo’yilgan va sog’inch bilan tinglangan.

U paytlari xususiy radiokanallar qayoqda deysiz. Shu kamchilik tufayli Ma’murjon-u Jo’raxon akalar o’zlari tashabbus ko’rsatib, uncha-muncha xarajatini ko’tarib bo’lsa-da, radio orqali jonli muloqotlar o’tkazishmagan. Shunday bo’lgandan keyin, avvaldan tayinlab qo’yilgan “muxlis”lar, aniqrog’i, hofizbolaning tanish-bilishlari radioga qo’ng’iroq qilib, iltimos qilingan savollarni hijjalab o’qib berishmagan, “Nega ekranda ko’rinmay qoldingiz, nega sizga e’tibor kam, falon konsertda nega qatnashmadingiz, nega shu chog’gacha unvon olmagansiz, nega sizni ulug’lashmayapti, qadringizga yetishmayapti...” deb masalani ko’ndalang qo’yishmagan. Negaki, bunday qilish uyat hisoblangan.

Avvallari televideniye hofizlarning hashamdor uy-joyini, oshxona-yu yotoq-xonasini, kiyim-kechagi, vannadan chiqqanida yelkasiga yengilgina tashlab oladigan xalatini, divanda mudrab yotgan mushukcha-yu kuchukchasini, moyi artilmagan qo’sha-qo’sha mashinalarini takror-takror namoyish qilmagan, boshlovchilar “Mana bu qandilni qayerdan sotib olgansiz, huv anavi chinni ko’zani sizga kim sovg’a qilgan, mana bu ko’yлак, oh, oh, qani endi menda ham bo’lsa”, deb “bechora”larni so’roqqa tutishmagan. Ustoz hofizlar, agarki shundoq qilsak, el ustimizdan kelubdi, nima degan odam bo’lamiz, deb bunday sharmandalikka aslo yo’l berishmagan.

San’atkorlar televideniye oshpazlik qilishmagan. Tor bilan cho’ymichning farqiga borishgan. Shu boisi hofizlar hofizligini, aktyorlar aktyorligini, voizlar voizligini qilib, mahorati-yu iste’dodiga yarasha olqish olib yurishavergan.

O’ylanib qolasan, tasavvur qilingki, o’shanda bitta qitmir Ma’murjon aka yoki Jo’raxon akani bir chetga tortib, “Aka, lotereya o’yini tashkil qilganmiz, shunga o’zingiz bosh bo’lasiz, quruqqa emas, albatta. Sizdan lozimni – katta ashula ohangida “Otingni sot xaloyiq, molingni sot

xaloyiq, a’lo o’yinlar keldi, yutug’i senga loyiq, voy-ey”, deb tursangiz bas” desa, bu soddasi tushmagurlar nima deyishardi ekan-a? Taxmin qilish mumkin, hoynahoy “Nimalar deyapsan hoy, tirrancha, meni kim deb o’ylayapsan, es-hushim joyida, miyam aynib qolgani yo’q, endi bir qilmaganim bola-chaqa, mahalla-ko’y oldida sharmandam chiqib, kulgi bo’lishmi, bor toshingni ter”, deb hafsalasini pir qilisharmidi...

Avvallari ham el-yurtda to’y-tomoshalar bo’lgan, hofiz-u hofizalar xizmatda bo’lishgan. Ammo qo’shiqchilar navbat talashib muxlislar ko’z o’ngida qirpichoq bo’lishmagan, “Men turganda senga kim qo’yibdi, falonchi! O’zing falonchi!” deb dahanaki taekvondoga tushishmagan. Aksincha, bir-birlariga yo’l berishgan.

Bu gaplar nechog’li achchiq bo’lmasin, hayotda bor va ko’z o’ngimizda har kuni, kunora sodir bo’lib turgan voqealardir. Tabarruk san’atimiz, muqaddas sahnamiz haqqi, ular to’g’risida ham gapirib turishimizga to’g’ri keladi. Zero, san’at – guldek nozik narsa, uni har jihatdan ehtiyotlamoq, asrab-avaylamoq zarur.

QIZIM, SENGA AYTAMAN...
(Jo’natilmagan maktublar)

San’atkor singlim!

Bugun siz ayni avj pardasidasiz, omad tulporida, ilhom qanotida yeldek uchmoqdasiz. Anvoyi gullar, hamd-u sanolarning oxiri yo’q. Muxlis-u muxlislar bir og’iz lutfingizga intizor. Shunday ekan, mendan lozimmi, sizni birozgina tergab qo’yish, deyman o’zingma o’zim.

Ijodingizni anchadan beri kuza-tib kelaman. Sahnaga ilk bor chiqqan kezlaringiz, ustozlarning duolari yodim-da. O’shanda ko’pchilik sizni qo’shiqchilik san’atimizning yangi yulduziga qiyoslagan edi. Shunday bo’ldi ham. Qisqa vaqt ichida el-yurtga tanilдингiz. Ustozlar nazaridan o’tgan dastlabki qo’shiqlaringiz hamon maroq bilan tinglanadi. Ammo... keyinkeyin sizda ko’pchilik xonandarimizga xos bir kamchilik paydo bo’ldi. Bilasizmi, nima?

Siz sahna bezaklariga, liboslarga jiddiy e’tibor berasiz. So’zga e’tiboringiz sust. Eng dilbar, latofatli so’zlarimiz sizning ijrongizda bor tarovatidan ayriladi, qorishiq bir lahja domida yarador ohuday tipirchilaydi. To’g’ri talaffuz etilgan, to’g’ri urg’ulangan So’zgina inson qalbining nozik, ta’sirchan joylariga borib uriladi. Bu dunyoda qo’shiqqa aylangan So’zdan kuchli, qudratli narsaning o’zi yo’q. Chala-chuchuk ifodalangan, ma’no qatlari o’rinsiz titib tashlangan, talaffuzning soxta libosi majburan kiydirilgan so’zlar yurakka emas, paxsa devorga borib urilganday bo’ladi. Ko’ksini changallab nola qiladi, najot kutadi. Afsuski, siz buni his etmaysiz. Muxlislaringiz nigohiga qalqib chiqayotgan taajjub ishoralariga diqqatingiz yo’q.

Bu mulohazalarga e’tiroz bildirishingiz mumkin. Negaki, hali shu chog’gacha hech bir kishi ijodingizga tanqidiy yondashmagan. Ammo so’zlarni to’g’ri ifodalash imkoniyatingiz bo’la turib, masalan “ko’z”ni “koz”, “hayot”ni “xay-yot”, “hazrat”ni “hasrati”, “yuragim”ni “yurakim” tarzida kuylayotganingizga toqat qilib bo’lmaydi. Qo’shiq so’zlari shu qadar nozikki, uning birorta harfi o’zgacharoq yangrasa, ma’no butunlay buzilib ketadi. Birgina “Marhabo” so’zini olib ko’raylik. Bu so’zdagi eng nozik, eng nafis harf “h”. Taniqli hofizlarimizdan biri shu so’zni uzoq yillar naqib keldi, “Mar-xabo” shaklida kuylab keldi. Bu qusur sizga ham o’tgan. Qo’shiq millatning ovozi ekanligini unutmang.

Hofiz do’stim. Qo’shiqlaringizni ming azob bilan tinglayman. Bilsangiz, tinglayotib... qiyinalib ketaman. Negaki, pardani balanddan olasiz, bo’riqib, zo’riqib kuylaysiz. Kuylayotgan siz, ammo azob chekayotgan – men. “Ishqilib, omoneson tugatib olsin-da”, deya yuragimni hovuchlab o’tiraman. Avjiga kelganingizda ko’zimni chirt yumib olaman.

Tinglovchiga rahmingiz kelsin, ukajon! Qo’shiq kuylaganda avvalo hofizning o’zi rohat qilishi kerak. Yayrab, butun vujudi orom olib, dildan kuylasa, qandoq yaxshi. Buning aksi bo’lsa, tinglovchi azobga qoladi.

O’z ovozingizda, o’z yo’lingizda, imkoniyatingizga qarab kuylang. So’zlar



Ahmadjon MELIBOYEV

zamiridagi ma’nolarni, shoirning maqsad-muddaosini tushunib, anglab kuylang. Shunday qilsangiz, sizga ham, bizga ham oson bo’ladi.

Bugun katta-kichik sahnalarda, bazm oqshomlarida zo’riqib-bo’riqib kuylayotgan qo’shiqchilar asosan kimgadir taqld qilish, uning ovozigga, ijro usuliga o’xshatish yo’lini tanlaganlar. Kimdir uzoq izlanib, nene mashaqqat bilan ijro etgan qo’shiqlarni xuddi shu yo’sinda takrorlayotganlar oz emas. Bu – san’at ham, ijod ham emas. Bu – barg yozmaydigan, nish urmaydigan, meva tugmaydigan ko’chat!

Siz shu yo’lning, shu ko’chaning boshida turibsiz. Qayting, o’z yo’lingizni axtaring, birodar!

Qo’shiqchi singlim!

Qo’shiqlaringizda pand-nasihat ko’p. Nasihat yaxshi narsa, ammo uning ham me’yori bo’lishi kerak. Tarbiyachining o’zi tarbiyal bo’lsin, deymiz, nasihat qiluvchi shu nasihatlariga avvalo o’zi amal qilsa durust. Sahnaga yarim-yalang’och chiqib, behayo qiliqlar qilib, so’ng sadoqat va vaf to’g’risida ashula aytlsa, bu – san’at emas, iqtidorning kushandasi.

Hamma zamonlarda ham sahna odobi bo’lgan, unga hamisha amal qilishgan. Sahnada odobsizlik qilish – xalqqa, el-yurtga, san’atkorlik kasbiga nisbatan hurmatsizlik hisoblangan. Bugun bu muqaddas tushunchalarni ayovsiz ravishda oyoqosti qilmoqdalar. Qo’shiq kuylashdan ko’ra qaddi-qomatni, yalang’och yelkalarni ko’z-ko’z qilish oshib bormoqda. Bordi-yu maqsad shu bo’lsa, bu ishni qo’shiqsiz ham qilsa bo’ladi-ku! El oldiga chiqib kuylashning go’zallar tanlovidan nahotki farqi bo’lmasa?!

Qiziqchi birodarim!

Ochig’i, sizga maktub yozish niyatim yo’q edi. Ammo katta sahnalarimizdan birida bo’lib o’tgan kulgi kechangizni tomosha qilib, qiziqchilik san’atimizning bu qadar tubanlashib ketganidan qattiq afsuslandim. Nahotki, qiziqchiligimiz bu qadar behayo, qo’pol, ochiq-oshkora bo’lib ketgan bo’lsa? Odamlarni kuldirish uchun og’izga nima kelsa aytib, qo’l bilan ko’rsatib, yalang’och so’zlarni yanada yechintirish san’at emasligini nahotki tushunmasangiz?

Meni qiynayotgan narsa, o’sha kechangizda siz aytib, zalda o’tirganlarni kuldirgan yalang’och hangomalar, latifalar. Ularning birontasini ham qog’ozga tushirib bo’lmaydi. Uyatdan qog’oz qizarib ketadi, ko’ngil xijil tortadi. Siz esa, odamlar kulishiyapti-ku, deya bizzar avjiga chiqasiz. Tomoshabinlar orasida nuroniy otaxonlar, onaxonlar, bo’yga yetib qolgan bokira qizlar borligi xayolingizga kelmaydi. Bir-ikki joyda deyarli aljish darajasiga yetib borganingizda bir guruh tomoshabinlar bu behayolikdan tizroq qutulish maqsadida zaldan chiqib ketishganini nahotki sezmadingiz?

Kulgi deganlari siz o’ylaganchalik jo’n narsa emas, u millatning qiyofasi, hayo libosi, ma’naviy-axloqiy darajasini belgilovchi o’ziga xos ko’zgu. Kulgi darg’alari – keksa ustozlar buni chuqur anglashgan, tilning suyaksizligini unutishmagan. Qayerda qanday gapirish kerak, askiyada qaysi payrovni tanlash kerak, nimadan tiyilish lozimligini unutishmagan.

Bugun-chi? Ba’zi qiziqchilarimizning “ijodi” oldida ochiq erotika filmlari ham hech gap bo’lmay qoldi. Bachkanalik ustiga bachkanalik, millat sha’niga mutlaqo to’g’ri kelmaydigan holatlar.

Bu yo’ldan qaytish kerak. O’zingiz qayta olmasangiz, hech bo’lmasa, shogirdlaringizni qaytaring, shuning o’ziga ham xursand bo’lamiz.



TAQDIMOT

Chin shoirlar she'rga qaytadi

QANOTI BOR QO'SHIQLAR

So'z shaydolariga Guljamol Asqarovani tanishtirishning, yozganlarini tushuntirishning hojati yo'q. Shundanmi, shoiraning "Taslim" nomli kitobida so'zboshi va taqrizlardan voz kechilgan. Hofiz qo'shig'ini baland notadan boshlasa, shinavandalari avjini qanday olar ekan, deb diqqatini jamlaydi. Shoira ham kitob epigrafida "Qo'llarimni qanotdek yozsam, Qanoti bor qo'shiqlar yozsam..." deya yaxshi niyat qiladi. Mutolaa davomida amin bo'ldimki, Guljamol opa qanoti qirg quloch qo'shiqlar yozmish.

Ishq va isyondan kuch olib asov daryoday qirg'oqlarni buzgan Guljamol Asqarova she'riyati keyingi o'n yilda teranlik kasb etibdi. Bu daryoning chuqurlashganidan, bag'rida xazinalar yig'ilganidan darak beradi. Shoira ijodida tasavvuf ohanglarining ta'siri kuchaygani sezildi. Barmoq vaznidan ko'ra oq she'rga moyilligi ortgani ko'rindi. Shaklga ko'p ham e'tibor beraverish kerak emas, nazarimda. Axir, sadaf qanday bo'lmasin dur bermasa qimmatidir. "Taslim" bag'ri esa dur-u javohirlarga to'la:

Aytarlar, istasang, hamma yurt Vatan,
Makon aylash mumkin har ne chamanni.
Yo'q! Men Xudoyimdan so'rab olganman,
Bitta peshonamga bitta Vatanni!

Qabrigamas, borib qo'lga bersin,
Gul bering onasin sog'inganlarga!

She'rlar shoira ruhiyatining xaritasiga o'xshaydi. Bunda yashil va kulrang nuqtalarga ko'z tushadi. "Taslim"ning umumiy kayfiyati aytib turibdiki, shoira bir necha bor tushkunlikka tushib, umidsizlik va alam so'qmoqlarini kezzgan. Ammo bu ortda qolgan. Bugun u yana katta yo'lda! "O'zingni yerdan ol, Guljamol!" deya yangi parvozga shaylanmoqda. O'quvchisini ham Vatan ichra safarga, Ko'ngil mulki ziyoratiga chorlamoqda.

Alqissa, yurtimizda va jahonda har kuni yuzlab, minglab yangi kitoblarni chop etiladi. Lekin hammasini yaxshi deb bo'lmaydi. "Taslim" esa she'riyat shaydolari uchun yaxshi kitob, benazir tuhfa bo'libdi.

O'qing, yana fikrlashamiz.

Otabek ISROILOV

Kimki diydor istasa, to'rt tomoni qibladir,
Oshiq quyoshning G'arb-u Sharqi yo'qdir aslida.

Qolayotgan odamdand hol so'rang, do'stlar, chunki
Ketayotgan odamga farqi yo'qdir aslida.

MUQIMIYONA

Bir ishq kechdi, ruhing yangligi' afsungar,
Tabassumim kabi toza, samimiyy.
Sening sevmay qo'yganingdek muqarrar,
Mening sevib qolganimdek tabiiy.

Bir tog' edim, senga qirdek tuyuldim,
Ko'zlarimga qo'rg'oshindek quyildim.
Va olmadek bo'g'izimdan jim so'yildim,
Tovonidan so'yilgandek Nasimiy.

Ishq rishtasi jodir odam naslida,
Senga yomon bog'landim ishq faslida,
Mening bobom bo'lsa kerak aslida,
"Har yerdakim umid etgan Muqimiy".*

Ketdi ohor – o'chdi chehram rangi, yor,
Senda esa yashil ishqning jangi, yor,
Tushunaman: kelganida yangi yor –
"Yod etilmas qadrdonlar qadimiy".*

Avzoyi ko'p buzuq ekan bu charxning,
Bozorlari ko'tarmadi hech narxni,
Kel, jannatga aylantir shu do'zaxni,
"Ey istig'no firdavsining nasimi".*

* Muqimiyning "Yodimga tushdi"
g'azalidagi satrlariga ishora.

XAYR-XO'SH

Ko'ksimning qafasidan uchgan qushim, alvido,
Jannatning ayvonida ko'rgan tushim, alvido,
Baxtning naqdligi yolg'on, ahdning naqdligi yolg'on,
Nasiyaga qolgan ey, xayr-xo'shim, alvido.

Sen bahorga oshiq qush, men kuzi kelgan bog'man,
O'z boshidan qum sochgan, xazon sochgan nosog'man,
Kattaqo'rg'oniy tog'man, Noqis bobomdek dog'man,
Rangi yashilim ketib, uchdi hushim, alvido.

Hoy, manzil makonsizim, qayga borsang, yaxshi bor,
Ortingda bo'zlab qolgan bir g'ariba baxshi bor,
Yodingda tut, sen o'pgan peshonamning naqshi bor,
Malikaman, qulimga tushdi ishim, alvido.

Biz kuzda ayro tushdik, kuzda gunoh bormi, ayt?
Sevib termulib turgan ko'zda gunoh bormi, ayt?
Men o'ldirdim bu ishqni, lekin guvoh bormi ayt?
Bir noxush tun tushimda tushdi tishim, alvido.

Zor edim, visolimga har dam zorliging uchun,
Mehribonliging, har dam hamdam, yorliging uchun,
Bu dunyo aziz edi, bir sen borliging uchun,
Qolmadi bu dunyoda aziz kishim, alvido.

Jannatning ayvonida ko'rgan tushim, alvido.

QAYTISH

Huv qirlardan boqqancha qiya,
Nimjonchalar bir-birin suyab,
Adirlarni alvonga bo'yab,
Qizg'aldoqlar qirga qaytadi.


Qarg'alarning qo'shig'i "qar-qar",
Har odamda bir ruhi gavhar,
Shu gavharni asrolsa agar,
Sirdan kelgan – Sirga qaytadi.

Sevgilarim yo'qoldi, yitdi,
Quvonchlarim darbadar ketdi,
Ko'nglimga bir xushxabar yetdi:
Ketgan bari birga qaytadi.

Ey, odamni dovdiratgan g'am,
Ey, ko'zimni jovdiratgan g'am:
Parvozi eng baland qushlar ham
Bir don uchun yerga qaytadi.

Kim o'zini har kun tergamas,
O'sha bilan Xudo birgamas!
Bir kun kelib, qaro yergamas,
Chin shoirlar she'rga qaytadi.

Qizg'aldoqlar qirga qaytadi.



MENI KECHIRING

Yo'lchim, yo'lingizga to'shaldim yo'ldek,
Hislarim sovudi, sovrildi kuldek,
Nafs degan botqoqqa nilufarguldek,
bo'kib ketgan bo'lsam, meni kechiring.

Nechog'lik sevganim bilmaysiz, toki,
Umringizda katta xatoman, yoki,
Oy nuridek harir ko'nglingiz chokin
so'kib ketgan bo'lsam, meni kechiring.

Tuzata olmadim dil xarobini,
Orzu azobi-yu baxt sarobini,
Siz ichmoqchi bo'lgan ishq sharobini
to'kib ketgan bo'lsam, meni kechiring.

Ko'nglimni ko'nglingiz – dunyoga otdim,
Ismimni taqdirga, ro'yoga otdim.
O'zimni bag'ringiz – daryoga otdim,
cho'kib ketgan bo'lsam... meni kechiring.

EY, HAYOT!

Bir hayot istadim, gul-gulgun hayot,
Yetmish ming jiloli ko'p rangin hayot,
Kel, bir ochilaylik, ey g'amgin hayot,
Men axir bag'ringga gul bo'lib keldim.

Oshiq ming ohangga solar o'zini,
Asranganlar asrab qolar o'zini,
Ko'rlar ko'rmaganga olar o'zini,
Yo'lin yo'qotganga yo'l bo'lib keldim.

Qayg'ular yuziga eshik yopdim: "qars!"
Shodon raqsqa tushdim, g'amga qasdma-qasd.
Ruhim mayxonalar ichra mast-alast,
Ishq degan piringa qul bo'lib keldim.

Boshimni bog'lagan ul bebosh qani?
Hech yorlik qilmagan bag'ritosh qani,
Endi ko'rolmasin mendan boshqani,
Ko'zlariga torting, mil bo'lib keldim.

Quch meni, nafasing sezay man hayot,
Bag'ring jannat emish, kezay man hayot,
Bezdirsang ham seni bezayman hayot,
Bu dilsiz dunyoga dil bo'lib keldim!

Mangu so'lmaydigan gul bo'lib keldim!

MENSIZ

Mensiz ham hayoting chiroyli edi,
Men bilan bo'ldi u yana chiroyli
Va yana mensizsan,
lekin baribir,
Kunlaring quyoshli, tunlaring oyli.

Men sensiz baxtlarning ismin unutmidi,
Senzilik...
toabad zulmatdir taqdir.
Ne uchun mensiz ham yashnayverasan,
Nega mensiz baxtsiz emassan axir?

Senzilik... qalbmni ketmish pichoqlab,
O, sening kuylaring hamon avjida.
Men sensiz Xudodan ketdim uzoqlab,
Sen esa Xudoga yaqinsan juda.

ASLIDA

Bu charxi kajraftorning charxi yo'qdir aslida,
Neki bebaho bo'lsa, narxi yo'qdir aslida.

18 ming olamning tarhin topsa bo'lar, lek,
Ko'ngil degan makonning tarhi yo'qdir, aslida.

Bu devona ruhimga dor izlab netarsan, do'st?
Mashrabi bor ruhlarning Balxi yo'qdir aslida.

Hayot ishq bilan totli, ta'm bilgan bilar buni,
Ichsang ishq sharobining talxi yo'qdir aslida.

Ma'no, mohiyat izlab, o'zin charchatdi odam,
Xudoning Ishqdan boshqa sharhi yo'qdir aslida.

HIKOYA



Qo'chqor NORQOBIL

Qism oshxonasida kechki ovqatga xafsalasiz qo'l urdik. Ishtahaga it teggan. Sababi, tong sahar jangga ketishimiz haqida buyruq bor. Qayerga borishimiz noma'lum; sir tutishmoqda. Bunday imi-jim tayyorgarlikdan sezish mumkinki, Chorikor yo Panjsherga yo'l olsak kerak. U yoqlardan tirik qaytish dargumon, ajalning uyasi, Xudo qarg'agan joy. Do'zaxning darvozasi ochilgani shu...

Stolimiz atrofida asosan o'zbeklar jam bo'lgandi. Yemakdan so'ng oshpazimiz duo qildi:

– Omiyn! Qaytib kelganlaringda ovqatim yetmay qolsin...

Ayni tob tepamizda siyosiy targ'ibotchi zobit hozir bo'ldi. Askarning gap-so'zi tugul xayolidagi o'y bilan ham qiziquvchi bu iskovichni jinimiz suymasdi.

– Falonchiyev! Hozir nima deding? Qani tarjima qil-chi?

Oshpaz jim. Boshqalar ham. Bilaman,

OVQATING YETMAY QOL SIN...

Do'stim Baxtiyorga bag'ishlayman

zobit tirnoq ostidan kir topib undan bomba yo mina yasaydi.

U kinoyali iljaydi:

– Sen duo o'qiding. Shuni menga tarjima qilib ber, tamom!

– Keyingi gal ovqatimiz yetmay qolsin, deyaпти. Buning nimasi yomon, – ijrg'andim.

– Ahmoq! Sovet armiyasi har jihatdan qudratli. Bizda oziq-ovqat yetarli. Senlarning miyang buzilgan...

Asabim zir qaqshadi. Og'zimga kelgan gapni qaytarmadim:

– Kaltafahmsan! – dedim sensirab.


Yuziga tik boqdim. Jag'ini ochsa, quloq chakkasida chaqmoq chaqdiradigan vajohatimni ko'rib esankiradi. To'g'rida, ertaga urushga chiqqandan ko'ra gaupvaxta, ya'ni, askarqamoqda yotganim yaxshiroq, nari borsa bir haftadan so'ng qo'yvorishadi... Zobit nimadir deb

g'o'ldiradi-da, oshxonadan otilib chiqib ketdi.

Zum o'tmay qism qorovul boshlig'i va ikki navbatchi askar paydo bo'ldi. Ertaga jangga chiqishimiz shartligi sabab menga indashmadi, oshpazni olib ketishdi.

...Jangdan qaytdik. Oyoqlarimiz zil-zambil holda oshxonaga kirdik. Ishtaha yo'q... Oshpaz bir burchakda ezg'indi holda bosh egib o'tiribdi. Bizning yonimizga kelmadi. Sababi, uning ovqati ortib qoldi, sababi...


Haligi targ'ibotchi zobit oshpazning yoniga bordi. Yuziga mahzun tikilib yelkasiga kaftini qo'ydi. Bizning stolga o'g'rilib qaradi. Qaddini g'oz tutdi. O'ng kaftini chakkasiga tirab hurmat ma'nosida harbiycha salom berdi. Mijjalari jiqqa yosh. Shu tarzda bizdan, aynan mendan uzr so'radi. Biz ham o'mimizdan turib, kaftimizni o'ng qoshimiz yoniga tirab harbiycha alik oldik.



“Urushni adolatli deb bo'lmaydi, chunki hatto adolat uchun kurashsang ham odilona urushish mumkin emas.

Tadeush KOTARBINSKIY

”



Sun'iy intellekt chizgan rasm.

TUTASH TOMIRLAR

AFANDI O'LMAGAN,
O'LMAYDI HAM!

Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi Dodbog'ni qishlog'ida 1954–2021-yillarda Sulton Muqimov degan birodarimiz yashab o'tdilar. U kishining “xurmacha qiliq”laridan boxabar odam, albatta: “Afandi o'lmagan, o'lmaydi ham”, degan xulosaga kelar edi. O'zlari qilgan qiziqchiliklarini keyin davralarda aytib berib ham, hammani kuldirib yurar edi. Bunaqa odamlar oramizda ko'plab topiladi. Ularni ba'zan “Afandi” ham deymiz.

KO'NYOLIK AFANDI

Buxoroda bunday odamlarni ko'rsam: “Afandi buxorolik bo'lgan”, degim keladi. Lekin Turkiyaning Ko'nyo shahrida shu gapni aytib, naqd baloga qoldim-ku!

2019-yilning iyun oyida Ramazon hayitini buyuk shoir va shayx Jaloliddin Rumi mangu makon topgan shu shaharda qarshilash nasib etdi.

Ko'nyoda tahsil olayotgan yigirmaga yaqin o'zbekistonlik yoshlarni yig'ib, o'zimiz yashayotgan ko'pqavatli uyning orqasidagi bo'sh yerda shlakobloklardan qo'lbola o'choq yasab, osh damladik. Safimizga doktorantlarimizning biri bilan qo'shni turadigan Mehmet degan turk og'amiz ham oila a'zolari bilan qo'shildi. Dilkash, hazilkash kishi ekan. O'zi kamina osh damlaganda go'laxlik qildi, ya'ni o'tin qalab turdi. Lekin suvratga tushayotganda kapgirni qo'lga olib, kaminaga qozonga suv quyishni buyurdi. Osh pishganidan keyin telefonidagi suvratni hammaga ko'rsatib:

– Mana, men osh damladim, mehmon menga yordam berib turdi, – deb maqtandi. – Afandining qarindoshimiz, nima balo? – dedim.


– Qarindoshiman, – dedi.
– Yo'g'e, – dedim, – Siz emas, men Afandining qarindoshiman. Chunki Afandi buxorolik bo'lgan, men ham buxorolikman. Buxoroyi sharifning go'zaldan go'zal Labihovuz majmuasida uning haykali ham bor. Shu bilan bahs boshlanib ketdi-ku:

– Buxoroda Afandining nechta haykali bor? – Bitta!
– Bizda esa 12 ta!
– Bunaqasini eshitmaganman.
– Eshitgan bilan ishonadiganga o'xshamaysan, borib ko'rish kerak.
– Qayoqqa boramiz?
– Oqshaharga! Ko'nyo elining elchasi u. Afandi o'sha yerlik bo'lgan. Qabri ham o'sha yerda. Qabr atrofida katta bir majmua barpo etilgan. Haykallar shuning tarkibida. Ularda Afandi latifalari asosida har xil holatlar aks ettirilgan. Oshni yeymiz-u, o'sha yoqqa jo'namiz. Bu yerdan 150 kilometr. Mashinamga sen-u mendan tashqari yana uch kishi sig'adi. Qorong'i tushganiga qadar bermalol borib kela olamiz.

Dardi sayohat bo'lgan qaysi odamga bu gap yoqmaydigi?! Darvoqe, turklar “viloyat”ni “el”, “tuman”ni “elcha” deb aytishadi.
– Borish-kelish 300 kilometr bo'lar ekan, yoqilg'isini biz quyib beramiz, – dedim.
– Qo'rqaman, – dedi Mehmet afandim. – Mehmondan pul olsam, Xoja Nasriddindan naqd baloga qolaman-a.

O'N TO'RTINCHI QABR

Mehmet afandiga ergashib, kamina, o'g'limiz Shohruxbek, tarixchi Iqboljon, dinshunos Muhriddinjon Oqshaharga yetib bordik. Bahonada yo'l-yo'lakay Ko'nyo viloyatining ekin maydonlarini tomosha qildik. Oqshahar – elcha markazi ekan. Obodgina shaharcha. O'rta-dan bir soy oqib o'tgan. Uning o'ng qirg'og'ida qadimiy bir qabriston bor ekan. Xoja Nasriddin



Afandining dahmasi ana shu mozorning o'rtasida. Usti ayvon bilan yopilgan.

Yonida yana uch-to'rt qabr toshi bor. Odamlar kelib, ziyorat qilib ketar ekan.

Afandini bu yerda “avliyo zot” deb hisoblashar ekan. Biz borganda atrofida necha-necha odam duoyi fотиha qilib, Allohdan nimalarnidir so'rab turganiga guvoh bo'ldik.

Qabr toshining bir tomoniga temir panjara o'rnatilgan. Eshikchasiga kattagina gulf ham osilgan. Lekin uch tomoni ochiq. Bu panjara-yu gulf nimani qo'riqlayotganini Xudo biladi. Shuning o'zida kuchli hazil bor. Bu ham Afandining qaysidir latifasi mazmunini ifodalasa kerak. Eng muhimi, o'rnatilgan qabr toshida Afandining olamdan o'tgan sanasi milodiy hisobda “1286-yil” deb qayd etilgan.

Yozilgan lavhdan ham bilib oldikki, Afandi – tarixiy shaxs. Tasavvuf yo'lidagi shayxlardan hisoblanar ekan. Piri ham bo'lgan. Azbaroyi donishmandligi uchun undan ko'p rivoyat, latifa, hangoma, lutf boqiy qolgan.

Bizdagi ayrim latifalarda Afandi ba'zan o'ta bachkanalashib ham qoladi. Ammo turkcha latifalarda u hazilkash, biroq shunchaki emas, o'ta dono, aqlli, donishmand hazilkash. Uning tasavvuf vakili sifatida ulug'lanishi ham bejiz emas-da.

BIRINCHI “QALDIRG'OCH”
EMAS EKANMIZ

Maqolamiz nashrga tayyor holga kelgan, unda, jumladan, shunday jumalar bor edi: “Ehtimol, Afandi qabrini ilk bor ziyorat qilgan o'zbeklar biz bo'lsak kerak. Chunki adabiyotshunos bo'la turib, uning tarixiy shaxs ekanini, dafn etilgan makoni ma'lumligi haqidagi ma'lumotni birinchi marta bilib turishim edi”.

Kuni kecha filologiya fanlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti Abdumurod Tilavov bir masala bo'yicha qo'ng'iroq qilib qoldi. So'ragan narsasini telegramiga tashladim. Qarasam, kaminaga bir kitobning elektron versiyasini tashlab qo'ygan ekan. Nima deysizmi? Afandi latifalari! Ochiqi, bu – turkiyalik mutaxassis Sayyid Burhoniddin ibn Mavlononing “O'qing, kuling va tafakkur qiling” kitobi. Unda avval Afandi latifalari matni berilgan, keyin kitob muallifi ularni sharhlagan, Abdumurod domla

kitobni o'zbek tiliga o'girar ekan, bu matnlarga yana keng izohlar ilova qilgan.

Tarjimon bitgan so'zboshidagi mana bu jumalarni o'qib, Afandining Ko'nyodagi qabri ziyoratiga borgan birinchi o'zbeklar emasligimizni bilib oldim: “O'zbekiston milliy universitetida o'qib yurgan chog'i-mizda davlatlararo shartnoma doirasida Turkiya jumhuriyatining Ko'nyo shahriga bordim... Kunlarning birida mezbon talabalar bilan Nasriddin Afandi haqida suhbatlashayotganimizda ular Afandining qabri Ko'nyodan 140–145 chaqirim uzoqlikdagi Oqshahar shahrida ekanini aytib qolishdi... O'sha kuni shivalab yomg'ir yog'ayotgan bo'lsa-da, qiziqishimiz ustun kelib, men, Ulug'bek Hamdam, Muzaffar Solijon va Vali Nishon Oqshaharga qarab yo'l oldik”.

BIZNING AFANDI

Qoraqalpog'istonimizda ham Afandining qabri mavjud. Qiziq, Afandiga Buxoroda haykal o'rnatmak, o'zimizda uning qabri ham bo'lsa. Xo'sh, asl Afandi qayerlik bo'lgan o'zi?

Qiziqqan topar ekan. Afandining prototipi haqidagi ilmiy asosli fikrlarni rahmatli filologiya fanlari doktori, professor Oxunjon Safarovning “Latifalarning latif sinoatlari” maqolasidan topdim. Unda bizni qiziqqtirgan masalaga doir muhim-muhim nuqtalar bayon etilgan.

Afandi timsoli o'zbek xalq og'zaki ijodida XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran latifalarning markaziy qahramoniga aylana boshlagan.

Eng qizig'i, milliy folklorshunosligimizning otasi, professor Hodi Zarifning fikricha, bu timsol o'zbek latifalariga turk folklorining ta'siri sifatida ozarbayjon folklori orqali kirib kelgan. Oxunjon Safarovning yozishicha: “Aslida, XII–XIII asrlarda turk xalq latifalarining qahramoni sifatida tanilgan Mullo Nasriddin yoki Xoja Nasriddin yoxud Nasriddin Afandi XIX asr oxirlarigacha nainki O'rta Yer dengizi sohillarida yashovchi xalqlar, balki G'arbiy Yevropada, Kavkazortida, Qrimda, Kichik va O'rta Osiyoda, Uyg'uriston va Hindistonda yashovchi xalqlar latifalarining qahramonlari o'rini ham shiddat bilan egallab bordi”.

Bu dalillarning bari kaminaning emas, aynan Mehmet afandining foydasiga xizmat qiladi.

Uning fikrini qo'llab-quvvatlaydigan misollar faqat shulardangina iborat emas.

Ammo bahonada boshqa bir muhim jihatni ham qayd etmasak bo'lmaydi.

Nasriddin Afandi timsoli va u bilan bog'liq latifalar aynan xalqimiz orasiga milliy ma'rifatparvarlik harakati, ya'ni jadidlik ayni avj olgan davrlarda kirib kelgan. Bu nimadan dalolat beradi? Afandi latifalari orqali zamonning illatlari qattiq qoralangan, jamiyatning bu qoloq holatdan chiqishi zarurati uqtilrgan, shu tariqa ham xalq uyg'onishga, ilgariashga, ilg'orlashishga undalgan. Afandi bilan bog'liq bu musharak meros yana umumturkiy adabiy-madaniy birligimizning yorqin timsoli ham hisoblanadi. Jadidlarimiz ulug'lagan bu birlikni bundan buyon yanada qadrlashimiz shart va zarur.

Oxunjon Safarov fikricha: “Turk va boshqa xalqlardagi olimlarning XX asrning 50–60-yillaridagi jiddiy izlanishlari va tarixiy dalillarning guvohligicha, Nasriddin Afandi obrazining shakllanishida ikki tarixiy shaxs kuchli ta'sir ko'rsatgan”. Olim ulardan biri sifatida aynan Xoja Nasriddin Oqshahariyni, ikkinchisi tarzida esa eronlik taniqli matematik va astronom Xoja Nasriddin Tusiy(1201–1274)ni ko'rsatadi. Mayli, bu yog'i folklor mutaxassislarning ishi. Bizga esa hozir oqshaharlik Xoja Nasriddin haqidagi tarixiy ma'lumotlar qizi.

Bir ma'lumotga ko'ra, Xoja Nasriddin Afandi 1205/06-yili Oqshaharda Yavloq Arslon oilasida tug'ilgan. Muallifi noma'lum “Saljuqnoma” asarida qayd etilishicha, Yavloq Arslon – Onado'lining amirzoda turklari xonadoniga mansub Hisomiddin Cho'pon o'g'li avlodidan. U 1291-yili saltanat uchun kurashlar jarayonida o'ldiriladi. O'rninga o'g'li Xoja Nasriddin Qos-tomonga bek etib tayinlanadi.

Ikkinchi ma'lumotga ko'ra, 1291-yil Xoja Nasriddin Sulton Mas'udga hamroh bo'lib, Oqshaharga kelgan. Ana shu paytda elga solingan katta o'ponni Xoja Nasriddin oraga tushib, bir miqdor kamaytirishga erishadi.

1301-yili Qostomonga Usmong'oz va Shujoiddin Sulaymonlar hujum qilib, shaharni egallaydi va Xoja Nasriddinni qatl etishadi.

Uchinchi ma'lumot Hasan afandining tugallanmay qolgan “Majmuayi maorif” asarida keltiriladi. Unga ko'ra, Xoja Nasriddin 1208/09-yili Savri Hisorda tug'ilib, 1237–1239-yillar orasida Oqshaharga ko'chib borib, shu yerda yashab qolgan. Shoirlik ta'bi ham bo'lgan. U saljuqi hukmdorlar – Sulton Alouddin Qayqudbodiy va G'iyosiddin Mas'ud II davrlarida yashagan.

1245-yili Oqshaharda vafot etgan va shu yerga dafn etilgan. Ikki qizi bo'lgan. Kattasi Fotima xotun otasidan oldin hayotdan ko'z yumgan. Ko'nyodagi Mavloni Jaloliddin Rumi yotgan mozorga dafn etilgan. Ikkinchi qizi Durri Malak otasi bilan bir mozorda yotibdi.

Afandining turkiyalik bo'lganini isbotlashga xizmat qiladigan yana bir dalil bor. Dmitriy Kontemir 1737-yili yozgan “Turkiya tarixi” kitobida Sohbiqiron Amir Temur va Xoja Nasriddin bilan bog'liq bir latifa bayon etiladi.



Sultonmurod OLIM,
filologiya fanlari doktori,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
professori

Latifalar xalq og'zaki ijodi namunasi va ularda badiiy to'qima asosiy o'rin tutadi. Ya'ni, bu ikki shaxs bir davrda yashamagan, albatta. Biroq bu fakt Xoja Nasriddinning Turkiya bilan bog'liqligini tasdiqlashga yordam beradi. Natan Mallayevning “O'zbek adabiyoti tarixi” darsligida Nasriddin Afandi va Amir Temur bilan bog'liq latifalar tahlil qilingan. Biroq, olimlarning fikricha, bu latifalar ham keyin to'qilgan.

IKKI EL-YURTNI
BOG'LAGAN ZOT

O'zbek va turk xalqlarini, O'zbekiston va Turkiyani chambarchas bog'lab turadigan rishtalar juda ko'p. Lekin ular orasida bizni Xoja Nasriddin Afandichalik o'zaro zich tarzda yobasta aylaydigan boshqa adabiy qahramon yo'q.

Qani, aytimg, dunyoning O'zbekiston bilan Turkiyadan boshqa yana qaysi davlatida Afandining haykali qad rostlab turibdi?

G'OYALAR MAMLAKATI

Turkiya – g'oyalar mamlakati. Chunki g'oyasiz xalq – doyasiz qolgan chaqaloqday gap-da.

Binobarin, Afandi hayoti bilan bog'liq 12 haykalning har birida ham muayyan g'oya ifodalangan. Birida Afandi daraxtning o'zi o'tirgan shoxini arralayapti, ikkinchisida uni qabrga olib ketayotganlarida kafan ichidan turib boshini chiqargancha gapiryapti, uchinchisida: “Sallangizni ko'rib, xatni o'qiy olasiz, deb o'ylabman”, degan kishiga sallasini yechib: “Mana, sallam o'qisin bo'lmasa xatni!” degandek uni uzatyapti va hokazo.

“DUNYONING MARKAZIDA
TURIBMIZ!”

Afandi qabrining oldida o'rta qozonning qopqog'icha keladigan doira shaklidagi bir mis “lagan” o'rnatilgan. Afandi shu nuqtada turib: “Dunyoning markazi – shu yer!” degan ekan. Ishonmaganlarga isbot uchun yana: “Marhamat, qayoqqa qarab yurib, dunyoni aylanib chiqsangiz ham, yana shu yerga kelasiz”, debdi.

Rost, biz turgan har qanday nuqta – amalda olamning markazi-da.

Bu ham bir vatanparvarlik.

Xullas, Afandi o'lmagan.

O'lmaydi ham.



DUNYO KITOB BOZORIGA YANA BIR QADAM

Mutolaa – olamlar aro eng maroqli sayr. U tafakkurni tarbiyalaydi, ongini charxlaydi, ma'naviyatni o'stiradi. Jamiyat rivojiga eng ko'p hissa qo'shadigan omil ham mutolaadir. Shuning uchun ham garchi bu shaxsiy ish sanalsa-da, kitobxonlikni targ'ib qilish va bunga sharoit yaratish davlat siyosati darajasidagi masala hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi noshirlik va matbaachilikda ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Keyingi 5 yilda sohaning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirishga qaratilgan 44 ta me'yoriy-huquqiy hujjat, jumladan, yangi tahrirdagi “Noshirlik faoliyati to'g'risida”gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 11 ta farmoyishi, shuningdek, 29 ta davlat standartlari qabul qilindi.

Prezidentimiz qarori bilan O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan matbaa uskunolari va qog'oz xomashyosi bojxona bojidan, shuning-

dek, nashriyot va matbaa korxonalari foyda hamda qo'shimcha qiymat solig'idan ozod etildi.

Natijada, mamlakatimizda 2020-2024-yillarda nashriyotlar soni 3,5 barobar oshib, bugungi kunda salkam 600 taga yetdi. Nashriyotlar tomonidan 2020-2024-yillar davomida har yili o'rtacha 11,6 ming nomdagi jami 197,9 mln. nusxada kitob chop etildi.

Bu esa o'zbekistonlik noshirlarning Germaniya, Italiya, Turkiya, BAA, Xitoy, Rossiya, Eron, Belarus, Ozarbayjonda o'tkazilgan 20 dan ortiq ko'rgazma va tadbirlardagi muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minladi.

Yaqinda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida o'tkazilgan “Noshirlik ishi va mualliflik huquqlarini boshqarishda zamonaviy tendensiyalar” mavzusidagi maxsus seminar ham milliy mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston noshirlari va kitob savdosi milliy assotsiatsiyasi, “Nomad Culture Foundation” hamda O'zbekiston

Milliy kutubxonasi hamkorligida tashkil qilingan seminarda Frankfurtdagi dunyoning eng yirik kitob yarmarkasi Prezidenti va Bosh direktori Yurgen Boss, xorijiy va mahalliy noshirlar, shoir va yozuvchilar, rassomlar, illyustratorlar va kutubxona vakillari ishtirok etdi.

Ishtirokchilar ikki kun davomida “Mertin Wett” adabiy agentligi direktori Nikol Bitt, “Hörbuch Hamburg” nashriyoti Bosh direktori Kolín Xauer, Frankfurt kitob yarmarkasi xalqaro loyihalar menejeri Bettina Bek, yarmarkaning asosiy mijozlarni boshqarish va sotuvlar bo'yicha menejeri Vladka Kupskalardan Frankfurt kitob yarmarkasi dasturi, audiokitoblarning global bozori, mualliflik huquqi yoki litsenziyaning baholash qiymati, narx shakllanishi va muzokaralarga ta'sir qiluvchi asosiy omillar, litsenziyalashning turli modellari, xalqaro kitob yarmarkalarida nashrlarni taqdim etish bo'yicha eng yaxshi tajribalar, kitob bozori uchun sun'iy intellektning imkoniyatlari va muammolari to'g'risida batafsil ma'lumotlar oldi.

– Har bir muallif uchun asari farzand kabi qadrlidir. Uni butun dunyo bilishini, o'qishini istaydi, – deydi seminar mehmoni Vladka Kupska. – Frankfurt yarmarkasi muallif va noshirlarga ana shu imkoniyatni taqdim etadi. Yarmarkamiz o'z a'zolariga xalqaro grantlarga ega bo'lish, nufuzli mukofotlarga nomzodini qo'yish uchun ishonchli ko'prik vazifasini o'tay oladi.

Darhaqiqat, Frankfurt kitob yarmarkasi noshirlar va kitobxonlarni uchrashtiruvchi eng yirik xalqaro platformadir. Har yili yarmarkada to'rt mingdan ortiq nashriyotning to'rt yuz mingga yaqin kitobi ko'rgazmaga qo'yiladi. Seminarda ushbu yarmarkaga mahsulot chiqarish yo'llari o'rgatildi, o'zbek noshirlarining mulohazalari o'rtaga tashlandi. Ikki tomonlama muzokaralar o'tkazildi.

Seminarda so'zga chiqqanlar bu kabi hamkorlik butun dunyoda avj olib borayotgan ma'naviy yo'qsullikka qarshi ishonchli qadam bo'la olishini ta'kidlashdi.

Muhayyo RUSTAM qizi



AYOZ, CHORIG'INGNI UNUTMA!

Yaqin-yaqingacha maktablardagi adabiyot darslarida Muqimiyning “Tanobchilar” she’ri o’qitilardi. Katta avlod vakillari ham hajv uslubida yozilgan bu she’rni takrorlab yurishadi. Lekin bu hajv ortida alamli tarix turganini ba’zilar idrok etmasligi mumkin.

Muqimiy domla shu va boshqa hajviy asarlarida o’zi yashagan davrning ayrim illatlari, kamchiliklari, bid’atlariga qarshi qalamini qurol qilgani haq. Sovet mafkurachilari esa bundan o’z maqsadlari yo’lida foydalanib, shoir asarlaridan tarixni soxtalashtirish, qoralash, yangi tuzumning utopik g’oyalari targ’ib qilishda foydalanishdi. Muallif bu orqali mumtoz salafilariga qarshi qo’yildi.

Ammo afsuslanarlisi, mashhur shoirni sovetlar atay bayroq qilishar ekan, uning satirasi orqali yaqin o’tmishimizdagi ijtimoiy-siyosiy hayotni, yurt boshida turgan amaldorlar, mulozimlarni yoppasiga “feodal”, “zulmkor”, “oddii xalqqa qarshi”ga chiqarishga urinishgan. Necha avlodlarni shunga ishonitirishgan ham.

...Shoirning ushbu hajviyasini yod olishni topshirgan adabiyot o’qituvchimizdan “Tanob” degani qancha maydon?” deb so’raganimda ustoz muallim ozroq izza tortgan va “Bu... bu bir botmon yer” deya olgan va birortamiz “Botmon nima?” deb so’rashimizdan xavotirlanib, darhol tanaffus e’lon qilgandi.

Haqiqatan ham, maktab darsliklarida ko’p qadimdan ishlatib kelgan o’lchov birliklari haqida ma’lumot uchramasdi. Hatto bu ma’lumotlar oliy o’quv yurtlari darsliklariga ham kiritilmagan. Shunga hali-hamon “tanob” o’lchov birligi hajmi qancha bo’lishini ko’pchilik bilmaydi. Ayrim o’lchov birliklari uch xonlikda turli miqdorlarni anglatganini aytib o’irmaylik.

Xiva xonligida yer maydonlari “tanob”da o’lchangan. Bir tanob yer eni va bo’yi 36 metr maydonni anglatadi. Buni hozirgi o’lchamlarga qiyoslasak, salkam o’n uch sotix yer bo’ladi. Qishloq joylarida imorat o’rni, bog’ va tomorqa uchun aynan shuncha miqdorda yer ajratilgani ortida ham aynan qadimiy tanob o’lchovining ta’siri bor.

Xiva xonligi arxiv hujjatlarida shunday ma’lumotlar uchraydi:

“...Avazning yeri: bir bo’lagi – bo’yi qirq besh gaz, eni yigirma ikki gaz, yana bir bo’lagi – eni o’ttiz sakkiz gaz, bo’yi ellik gaz, yana bir bo’lagi – bo’yi sakkon sakkiz gaz, eni qirq besh gaz – jami salkam o’n tanob”.

“...Xo’jamurodning yeri: bo’yi yuz yigirma sakkiz gaz, eni yuz yigirma gaz, yana bir bo’lagi – bo’yi to’qson besh gaz, eni oltmish gaz – jami olti tanob”.

Shu o’rinda “gaz” o’lchov tamsisiga izoh berishga to’g’ri keladi. Gaz – katta odam ikki tomonga yoyinlagan qulochi o’lchovi. Bu taxminan bir yarim metrga teng keladi.

“...Туркистанский кyper” gazetasining 1911-yilgi 184-sonida Xiva xonligi bosh vaziri Islomxo’janing muxbir savollariga javoblari chop qilingan. Jumladan, Islomxo’ja shunday degan: “Men shahar hunarmandining o’g’liman, o’z otam izidan bormoqchi edim. Lekin Xudo menga yaxshi bosh bergan va

madrasada mening qobiliyatim ko’zga tashlandi. Men ruhoniylilik xizmatiga tayyorlanar boshladim. Lekin bir hodisa mening taqdirimni boshqa yo’lga solib yubordi. 13 yashar bolalik vaqtida qishloqda tog’amning uyida mehmon bo’lib turardim. Bir kuni shu yerga soliq yig’uvchilar keldi. Ular kelishi bilan shunday hodisalar boshlandiki, ularni so’zlab bermoqchi emas. Shu vaqtda men bu soliq yig’uv usulini o’zgarish uchun qanday qilib bo’lsa ham “katta amaldor” bo’lishga qaror qildim”.

O’sha davrda amalda bo’lgan soliq tizimi ilkida yeri bor dehqonlarni uch qatlamga ajratgan. 5 tanobgacha yeri bo’lganlar “adno”, 5-10 tanob yeri

ortiq yeri borligi uchun “a’lo” qatlamiga kirgan, ammo yer maydonlari bir necha ming tanobni tashkil qilgan yirik yer egalari uchun alohida oshirilgan soliq to’lashni talab qilardi. Islohotlar amaliyoti davrida ming-minglab tanob yeri bo’lgan, ammo 10-15 tanob yeri bor o’rtahol dehqonlar kabi kam soliq to’lab kelgan kishilar aniqlandi. O’sha yer egalariyning bir qismi xon qahridan qo’rqib yurtini tark etdi, ayrimlariyning yerlari davlat tasarrufiga o’tkazildi.

Arxiv hujjatlarida o’n to’qqizinchi asrning ikkinchi yarmi o’rtalarida (Islomxo’ja o’z ko’zi bilan ko’rgan voqealar kechingan davrda) xonlikda “adno” va “avsat” qatlam qo’lida 64 ming, “a’lo” qatlam ilkida esa 70 ming



bo’lganlar “avsat” va 10 tanobdan ortiq yer egalari “a’lo” deb yuritilgan. Uch qatlamdagi dehqonlarning xonlik g’aznasiga to’laydigan solig’i (xonlikda “solg’ut” shaklida ishlatilgan) orasida farq bor. Akademik M.Yo’ldoshev “Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi” nomli asarida soliq miqdorlari haqida shunday yozadi: “...Yer egasining yeri 5-10 tanob bo’lganda 2 tilladan, 10 tanobdan ortiq yeri bo’lganlar 3 tilladan soliq to’lab kelganlar”.

Ayni shu o’rinda Muqimiy hajv tig’iga olgan “insofsiz tanobchilar” o’rtaga chiqishadi. Ular xonlik g’aznasiga tushadigan soliqdan tashqari shu jarayonda o’zlari ham bir nimalik bo’lib qolishni istab “tanobni tortish”ga o’tishadi. Masalan, tanobiga 2 tilladan soliq to’layotgan “avsat” qatlamidagi dehqon yerini o’lchayotganda “tanobi sal tortilsa”, u “a’lo” qatoriga o’tib qolishi va ko’proq soliq to’lashi kerak bo’ladi. Bu “tanob tortish” ko’proq o’rtahol dehqonlarga, ya’ni “avsat”larga ishlatilib, ularni zo’rma-zo’raki “a’lo” qatlamga suqishtirish bilan qo’rqitish orqali amalga oshiriladi.

Aynan ayrim tanobchilarning adolatsizligiga chek qo’yishni orzu qilgan o’n uch yashar Islomxo’ja vaqti kelib xonlikda ikkinchi shaxs darajasiga ko’tarildi. U kuyovi Isfandiyoxtaxta o’tirgach, ko’pbandli islohotlar dasturini amalga oshirishga xonni rozi qila oldi. Bu dastur muqaddam 20 tanobdan

tanob yer bo’lgan. Bu raqamlar ayni paytda yer taqsimlanishida nisbatan adolat ustuvor bo’lganini ham ko’rsatadi.

Bundan tashqari podshohlik yerlari 165 ming tanobni tashkil qilgan. Bu yer maydonlarida yersiz dehqonlar chorikor maqomida ishlaganlar. Ular mehnatlari evaziga yetishtirilgan hosilning to’rtidan birini olishgan. Va ahamiyatlisi, xonlikda vaqf yerlari miqdori 200 ming tanobni tashkil qilgan. Vaqf yerlari madrasa, masjid va boshqa aholi qatlamlariga imtiyozli ajratilgan maydonlar. Shu raqamning o’ziyoq xonlikda madrasa-masjidlar nechog’iligini ko’rsatadi. Yetim-yesirli, navkarlar, sayyidzodalar soliqdan ozod qilinganini ham eslab o’tish kerak.

Islohotchi Islomxo’janing adolatni tiklash uchun boshlagan islohoti “tanobchilar bilan osh-qatig bo’lgan” ayrim zamindorlar paytavasiga qurt tushirdi va ularda qasos olishdek yovuz niyat tug’dirdi – vaziri akbar 1913-yil 9-avgust kuni vahshiyona o’ldirildi. Islomxo’ja o’tkazgan islohot doirasida pora yoki tanish-bilishlik tufayli yerlarni kamaytirib ko’rsatgan tanobchilar ham xon g’azabiga uchrab, ayrimlari qatlg yetkazilgan. Kichik yer egalari nisbatan adolatsizlik qilgan, “tanobini tortish” bilan qo’rqitib, ta’magirlik qilganlar topilib, ular ham jazosiz qolmagan.

Islomxo’janing insofsiz “tanobchilar tanobini tortish”dek ezgu maqsadi



Ro’zimboy HASAN,
jurnalist

unga qarshi kuchlar tomonidan to’xtatildi, ammo jadidlik harakati tufayli 1914-yilda dunyoga kelgan “Yosh xivalliklar” 1918-yilda xonga qarshi bosh ko’tarib, undan islohotlar o’tkazishni talab qilishdi va ustozlari Islomxo’ja orzu qilgan ishlarni bir qadar amalga oshirishdi. “Yosh xivalliklar”ning “insofsiz tanobchilar” siyosati Xorazm Xalq Respublikasining ilk amaliy dasturlari mazmun-mohiyatini tashkil qildi.

Jadid bobolarimiz raiyatni ma’rifatga chorlash, bilim olishga da’vat qilish bilan bir qatorda jamiyat hayotida ro’y berayotgan adolatsizliklarga ham qarshi turishgan. O’sha davrning vaqtli matbuotida chop qilingan tanqidiy-tahliliy maqolalarda goh-gohida ko’zimiz “tanob” va “tanobchi” so’zlariga tushadi. Ma’rifatparvar jadidlar soliqdan qochish uchun yer maydonlari hajmini, savdo tushumlari miqdorini yashirgan yer va mulk egalariy ayovsiz fosh qilishgan. Bu qing’irliklarda hamtovoq bo’lgan tanobchi, soliqchilar ham keskin tanqidga uchragan. Buyuk adib Abdulla Qodiriy tashkil qilgan “Mushtum” jurnali sahifalarida chop qilingan felyetonlar va boshqa hajviy maqolalarda ham shunga o’xshagan qing’irliklar qilgan nusxalar obrazlarini ko’p uchratamiz. Adib “Mehrobdan chayon” romanida Qo’qon xonligidagi tayinsiz soliqlar va adolatsiz soliqchilar haqida o’z fikrini bayon qilgan.

Adolatli davlat barpo etishni avvalo xalq ongini o’stirish, ularni ilmfanga yaqinlashtirish orqali amalga oshirish mumkinligini anglab yetgan, o’z dasturlarini shu poydevor ustiga qurgan jadidlar orzusi istiqloq sharofati bilan amalga oshmoqda. Jasur jadidlar so’ngaklari ustida dunyoga kelgan ozod yurtimiz Uchinchi Renessans sari dadil qadamlayotgan hozirgi kunlarda ham huv tarix qatlarida qolib ketgan ayrim illatlar goh-gohida ko’rinib qolayotgandir. Bu faqat samimiyat uchun. Ba’zida unga telba-teskari savollar berib, keskin javoblar kelsa, “jahli baloday-ku” deyishadi. Aslida esa bu noto’g’ri tushunilgan yoki tizimning kontekstdan chiqib ketgan holati bo’ladi. Qolaversa, sun’iy intellekt o’zi mustaqil ravishda jazolay olmaydi. Ya’ni, unga alohida buyruq berilmaguncha o’z xohishiga ko’ra ish tutolmaydi.

Endi uning biz haqimizda ma’lumotlarni bilishiga kelsak, odatda, biz unga aytinganlarni taqdim etadi. Agar o’zimiz aytmagan bo’lsak, ma’lumotlarni boshqa ochiq manbalardan chaqirib oladi.

BIR SAVOLGA BIR JAVOB

SUN’IY INTELLEKT
G’AZAB QILADIMI?

Ijtimoiy tarmoqda mashhur sayyoh-blogger bilan suhbatga ko’zim tushdi. U aytyapti: “Kelajakda sun’iy intellekt bizga buyruq berishi, ba’zi harakatlarmizdan jahli chiqishi va hatto jazolashi mumkin”. Bordi-yu, ko’rsatmasidan bo’yin tovlagudek bo’lsak, ijtimoiy tarmoqlarda unga ma’lum parol, suratlarmizni; o’ziga ayon xato-kamchiliklarimizni ommaga doston qilishi hech gap emas, deyaapti. Sayyoh “bashorat”idan vahimaga tushgan qancha! Buni video ostida qoldirilgan 150 mingdan ziyod munosabat (layk), uch yarim mingdan ko’proq izoh ham aytib turibdi. Eng qiziq fikrlar aynan izohlarda: birovi sun’iy intellekt bilan yaqin do’stligini bildirsa, yana birovi oilaviy muammolarini u bilan bamaslahat hal qilayotganini aytdan, boshqasi ko’ngil ishida uningdek “mahrami asor topmagan!” haqida yozgan. Sayyoh suhbatidan keyin ko’plar uydgagi gap ko’chaga chiqmasligi kerak degan to’xtamga kelib, sun’iy intellekt bilan ortiq sirlashmaslikka ahd qilgan. Bu xavotirlar qanchalik asosli? Mutaxassis fikriga quloq tutdik.

Nuriddin QAMARDINOV,
oliy toifali dasturchi:

Sun’iy intellektning jahli chiqishi mumkinmi? Shundan boshlasak. Avvalo, bu savolga uning o’zi ham “hech qanaqasiga iloji yo’q” deydi. Chunki u faqat oldindan berilgan kodlar, ma’lumotlar va algoritmlar asosida javob beradi. To’g’ri, u bilan muloqot sizni bizga jonli tuyulayotgan bo’lishi mumkin. Hissiy javoblar yo’llayotgandir. Bu faqat samimiyat uchun. Ba’zida unga telba-teskari savollar berib, keskin javoblar kelsa, “jahli baloday-ku” deyishadi. Aslida esa bu noto’g’ri tushunilgan yoki tizimning kontekstdan chiqib ketgan holati bo’ladi. Qolaversa, sun’iy intellekt o’zi mustaqil ravishda jazolay olmaydi. Ya’ni, unga alohida buyruq berilmaguncha o’z xohishiga ko’ra ish tutolmaydi.

Endi uning biz haqimizda ma’lumotlarni bilishiga kelsak, odatda, biz unga aytinganlarni taqdim etadi. Agar o’zimiz aytmagan bo’lsak, ma’lumotlarni boshqa ochiq manbalardan chaqirib oladi.

Misol uchun, facebookda biror o’qigan kitobimiz, yoqtirgan faslimizni post qilib qoldirgan bo’lsak, garchi unga aytmagan bo’lsak ham, ochiq manba holatida izlab topadi. Parollar va kodlar masalasidayam shunday: hech qayerda ochiq yozmagan bo’lsak, bilmaydi.

Suhbatda ko’tarilgan yana bir qiziq va dolzarb masala: “Sun’iy intellekt kelajakda insoniyatni boshqaradimi?” Bu savol atrofidagi munozaralar texnolog va olimlarnigina emas, jamiyatning keng qatlamini o’ylantirmoqda. Aslida, bu masala sun’iy intellektning texnik imkoniyatlaridan ko’ra, uning inson hayotidagi roli va ta’siri bilan bog’liq.

Sun’iy intellekt odamlarni to’g’ridan to’g’ri boshqarmaydi, ammo qaror qabul qilish jarayoniga sezilarli darajada ta’sir ko’rsatishi mumkin. Ayniqsa, reklama, ijtimoiy tarmoqlar va axborot platformalarida bu ta’sir allaqachon o’zini namoyon qilmoqda. Insonlar har kuni yuzlab qarorlarni – nimani ko’rish, nima xarid qilish, qaysi axborotga ishonish, kim bilan aloqa qilish kabi masalalarni algoritmlar ko’rsatmalari asosida amalga oshirishmoqda.

Bugungi sun’iy intellekt algoritmlari nafaqat iste’mol bozorida, balki kadrlarni tanlash, kredit ajratish, hatto sud tizimidagi qarorlar qabul qilinishida ham qo’llanilyapti. Bu esa katta imkoniyatlar bilan birga jiddiy xavflarni ham keltirib chiqaradi. Chunki inson hayotiga daxldor bo’lgan qarorlarni sun’iy tizimlarning xolis yo xoxolis qabul qilishi ehtimoli bor.

Shu bois, ko’plab mutaxassislar bu sohada axloqiy, huquqiy va ijtimoiy me’yorlarni ishlab chiqish zarurligini ta’kidlashmoqda. Sun’iy intellekt inson huquqlari va qadr-qimmatiga hurmat bilan yondashishi, shaffof va adolatli tizimlarga asoslanishi kerak. Aks holda, texnologiyalar insonning erkin qaror qabul qilish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida “Ethical AI”, ya’ni axloqiy normalarga asoslangan sun’iy intellekt konsepsiyasi rivojlanmoqda. Ilmiy markazlar, texnologik gigantlar va davlatlar sun’iy intellekt xavfsizligi, nazorat mexanizmi, shaffofligi va javobgarlik masalalarini muhokama qilmoqda.


Sizga bu fikrlar qanday tuyuldi: qiziqmi yoki qo’rqinchili? Javob shuning ichida.

Vasila HABIBULLAYEVA
tayyorladi.

JAHON AYVONIDA

SARATONNI UCH YIL OLDIN
ANIQLASH MUMKIN

Amerikalik olimlar saraton xastaligini ancha erta – hatto alomatlar paydo bo’lishidan 3 yil oldin qon orqali aniqlay oladigan jarayol usulini ishlab chiqishdi. Ushbu tarayonda immunitet hujayralarining DNKsi sun’iy intellekt yordamida o’rganiladi.



Keng qamrovli tadqiqot doirasida ushbu innovatsion usul bir necha o’n kishi ustida sinovdan o’tkazildi. Ayrim bemorlarda saraton bir necha oy, hatto bir necha yil o’tgach aniqlangan. Tahlillar esa o’sma alomatlarini rasmiy tashxis qo’yilishidan ancha oldin, ba’zi hollarda 3,5 yil ilgariroq ko’rsatgan.

Olimlarning fikricha, bunday texnologiya erta tashxis qo’yish uchun asos bo’lib, muvaffaqiyatli davolanish imkoniyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.


AQSH ERONGA
HUJUM QILADIMI

“Bloomberg” xabariga ko’ra, Amerika hukumati Eronga qarshi ehtimoliy hujumga tayyorgarlik ko’rmqda.

Nashr manbalari ma’lum qilishicha, Donald Trump harbiy rejalarni allaqachon ma’qullagan, ammo hali yakuniy buyruqni bermagan – u Tehronning taslim bo’lishini kutmoqda.



Kuch ishlatish ssenariysining asosiy tarafdori senator Linds Grem hisoblanadi. Trump aynan u bilan vaziyatni ko’proq

TELEGRAM ASOSCHISI
VASIYATNOMA YOZDI

Telegram asoschisi Pavel Durov “Le Point” nashrida bergan intervyusida oilasining hayotidagi o’rni haqidagi savolga javob berar ekan, vasiyatnoma yozganini aytib o’tidi.

Biroq Durovning so’zlariga ko’ra, uning farzandlari “o’ttiz yil o’tgach” uning boyligidan foydalanish imkoniyatiga ega bo’ladi. “Men ularning oddiy odamlar kabi yashashini, o’zlarini o’zlari shakllantirishi, o’zlariga ishonishni o’rganishi, bank

hisobiga qaram bo’lmay, ijod qilishlarini xohlayman”, deya qo’shimcha qildi Durov.

ROSSIYALIK JOSUSLAR
ARGENTINADA

Argentina Davlat razvedka kotibiyati (SIDE) mamlakatga Kremi manfaatli uchun ishlaydigan agentlar tarmog’ini fosh qildi. Bu haqda Argentina prezidenti Xaviyer Milei matbuot kotibi Manuel Adorni xabar berdi.



Adorni so’zlariga ko’ra, fosh qilingan tashkilotning maqsadi Argentinada mahalliy hokimiyatga qarshi dezinformatsiya kampaniyasini o’tkazish uchun Rossiya manfaatlariga sodiq odamlar guruhini yaratish edi.

QULAY SHAHARLAR

“Economist Intelligence Unit” – Economist jurnalingan tahliliy bo’limi dunyodagi yashash uchun eng qulay shaharlar (Global Liveability Index 2025) reytingini e’lon qildi. Unda birinchi o’rinni Daniya poytaxti Kopengagen egalladi.



Bu yil ro’yxatga 173 ta shahar kiritilgan. Baholash beshta – sog’liqni saqlash, madaniyat va atrof-muhit, ta’lim, infratuzilma, barqarorlik parametrlari asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek, kuchli o’ntalikka Avstraliyaning Melburn, Shveysariyaning Jeneva, Avstraliyaning Sidney, Yaponiyaning Osaka, Yangi Zelandiyaning Oklend, Avstraliyaning Adelaida va Kanadaning Vankuver shaharlari kirdi.



SHAMAYGA BORGAN OTABEK

Boshlanishi 1-sahifada.

“Manas”ga hujum boʻlganida Muxtor Avezov jonini oʻrtaga qoʻyib: “Qirgʻiz xalqining hayotidan “Manas” yulib olinsa, butun xalqning tilini kesib olgan boʻlamiz”, degan genial fikrni aytadi. “Manas”ni avaylab-asrashda, saqlab qolishda Muxtor Avezov chin jonkuyar ziyoliga xos bebaho tarixiy xizmat qildi.


XX asrning 50-yillari oʻrtalarida sobiq Ittifoq tepasida oʻtirgan millatparvarlar qotili vafotidan keyin Abdulla Qodiriyning oqlanishida qaysidir maʼnoda Muxtor Avezovning oʻz vaqtida bildirgan maslahati hal qiluvchi turtki boʻlgan. Bu toʻgʻrida oʻzbek adabiyotining atqoli nazariyotchisi Izzat Sulton yozadi: “Abdulla Qodiriy oqlash masalasini birinchi boʻlib Moskvada Muxtor Avezov koʻtargan edi”. Oʻzaro suhbatda Avezov bu ishni nimadan boshlash haqida yaxshi maslahat bergan: “Abdulla Qodiriy “Oʻtkan kunlar” romanida Rossiyaning Sharqqa nisbatan progressiv rol oʻynaganini birinchi boʻlib koʻrsatdi: Otabekning Shamayga sayohati haqidagi hikoyasida bu fikr yaxshi ifoda etilgan. Qodiriyning reabilitatsiya qilish uchun harakat boshlang va mana shuni dastak qilib oling”.

Bu gaplar aytilgan mahalda Rossiyaning Sharqqa nisbatan ijobiy roli har jihatdan boʻrttirib koʻrsatilar edi. Shu sababli reabilitatsiyaning ijobiy natijasi uchun ishni Qodiriyning xizmatini namoyish etishdan boshlash ayni murakkab sharoitda missiyaning muvaffaqiyatini taʼminlovchi faktor boʻlib qoldi. Muxtor Avezov oʻziga ustoz deb bilgan adib qismati uchun qaygʻurishi, uning nomi va asarlarini



oqlash borasida kuyinib yoʻl koʻrsatishi, jonbozligi va jasorati aslo unutilmasdir. Aytgancha, Chingiz ogʻa bilan Muxtor Shoxonovning yuqorida tilga olingan kitobida yana bir diqqatga sazovor epizod bor. Muxtor Shoxonov yoshlik, yigittlik pallasida Muxtor Avezovga havaslanib qaraganini eslaydi: “Qanday gapiradi, qanday yuradi – hammasi diqqatimizni tortadi. U xursand boʻlib ketgan chogʻlarida burnining uchini chimdib-chimdib qoʻyardi”. Adibning individual tabiati qoʻyib beradigan shunaqa ekan-da. Muxtor ogʻa yana eslaydi: “Esimda, Chimkent pedagogika institutida sirtidan tahsil olib yurgan vaqtimda Odil Yermekboyev degan oʻqituvchimiz boʻlardi. Ajablanadigan joyi shundaki, u Muxtor Avezovning “Abay yoʻli” epopeyasini boshdan oxirigacha yoddan bilardi”.

Bu juda muhim bir xotira va fakt.



“Ilm izlab, Yevropa, Istanbul, Qohira va Hindiston kabi madaniyat markazlariga borishdan choʻchimaslik kerak. Ilm dinning dushmani emas, aksincha, uning mustahkam tayanchi boʻlishi lozim.

Abdulla AVLONIY

Chunki Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romani yozilgan pallada uni davra-davra boʻlib odamlar navbatmanavbat tun uzogʻi oʻqishadi, ayni damda adib zamondoshlari orasida romanni yod olganlari ham bor edi. “Oʻtkan kunlar” bilan “Abay yoʻli” romanlari tarixida bunday ibratli va oydin sahifalar koʻp, albatta. Qolaversa, oʻzbek va qozoqlar yangi tugʻilgan chaqaloqlariga roman qahramonlarining ismlarini qoʻyishlariga ham Abdulla Qodiriy va Muxtor Avezovga boʻlgan ehtirom ramzi oʻlaroq qarash oʻrinlidir.



Muxtor Avezovning taʼlim va tahsili Toshkent muhiti bilan ham bogʻliq. U SAGUda – Oʻrta Osiyo davlat universiteti aspiranturasida taʼlim oladi (1928–1930), oʻquv muassasalarida maʼruzalar oʻqiydi. Dastlabki bir qancha asarlarini Toshkentda yozadi. Abdulla Qodiriy, Oybek, Gʻafur Gʻulom, keyinchalik Izzat Sulton, Vohid Zohidov, Asqad Muxtor kabi oʻziga davrdosh boʻlgan ziyoli adiblar bilan doʻstlashadi. Ularning asarlarini oʻqib, albatta, munosabat ham bildiradi: “Shonli oʻzbek nasrining ilk davrida Ayniy ijod qilardi. Yigirmanchi yillarga kelib Abdulla Qodiriy yetishib chiqdi. Men 1928-yildan boshlab uning asarlarini oʻzbek tilida oʻqiy boshladim”.

Qozoq adabiyotining gigant romannavisi Muxtor Avezov Abdulla Qodiriyning oʻziga ustoz deb bildi. Uning romanlariga bergan bahosida ham bironing gapiga oʻxshamaydigan original bir mulohaza aynan Muxtor ogʻa qalamiga mansub: “Abdulla Qodiriy – Julqunboy yuksak romanlar yaratdi. Uning romanlari 20-yillarda goʻyo tekis sahroda toʻsatdan Pomir togʻlari vujudga kelganday paydo boʻldi. Qodiriy asarlarini Qurmongʻozi yoki Chaykovskiy kuylarini tinglaganday dam olib, miriqib, gasht qilib oʻqiysan kishi... Uning tili ravon, shirali, musiqiy, menimcha, hamma Oʻrta Osiyo xalqlariga ham tarjimonsiz tushunarli”.

Menga juda maʼqul kelgan bu oʻxshatishli fikrdan tadqiqotlarimda, maʼruzalarimda koʻp foydalanaman. Darhaqiqat, favqulodda, “togʻday vujudga kelgan” asarlarning tagzaminida qaynar buloqdek ulkan adabiy meros, ulugʻ ajdod-allomalarimiz poetik tafakkurining totli mevalari borligini ham Muxtor Avezov yaxshi bilardi.

Adibning “Kim aybdor” hikoyasini oʻzbek tiliga tarjima qilgan isteʼdodli yozuvchi Nosir Fozilov “Muxtor ogʻa” essesinde Avezov bilan 1959-yili tanishganini eslab, uning oʻzbek yozuvchilari asarlarini oʻzbek tilida oʻqiganidan quvonganini bildirgan. Qaysi bir oʻzbek adibi asari muhokamasida

qatnashar ekan, shunday bir ibratli fikrni aytadi: “Muhokama oxirida Muxtor ogʻa qanday yozish va kimga ergashishni bilmay yurgan baʼzi yozuvchilarimizga taassuf bildirib: “Men hayronman, baʼzi oʻzbek yozuvchilari ustoz qidirib uzoqqa chopadi. Vaholanki, ustozlari oʻzlarida turibdi. Bu – Abdulla Qodiriy, bu – Oybek, bu – Abdulla Qahhor. Abdulla Qodiriy mening haqiqiy ustozim boʻladilar”, dedi... U kishi Abdulla Qodiriyning shaxsan tanir, Oybek domla bilan jonajon doʻst ekanlar. Qizigʻi shundaki, Oybek domla Muxtor ogʻani “muallim” deb atardi, Muxtor ogʻa ham



oʻz navbatida Oybek akani “domla” deb hurmat qilardi. Bu ikki buyuk insonning kamtarligini koʻrib, odamning havasi kelardi”.

Muxtor Avezov ijodining avvali qaysidir maʼnoda jadidlik harakati bilan bogʻliq. Uning ilk hikoyalarida ham jadidona kayfiyat seziladi. “Kim aybdor” – bu hikoyada millatning maʼnaviy, madaniy holatini, inson erki masalasini badiiy talqin qiladi adib. Hikoyadagi oddiy qozoq ovuli va undagi anʼanaviy urf-odatlar: mehmondorchilik, qiz uzatish, kelin-kuyov koʻrishuvlari, otanonaning orzu-niyatlari va farzandlarning yangicha fikrlay boshlashi kabi jarayonlar tasvirlanadi. Hikoyada Aziza bilan Islomning qismati odamni oʻyga toldiradi.

Asar oʻquvchisi Aziza fojiasi uchun “kim aybdor” degan savolni qoʻyadi. Oʻzicha muhokamalar qiladi. Shunda har qanday odamning orzu-umidlari



...Avezov bu ishni nimadan boshlash haqida yaxshi maslahat bergan: “Abdulla Qodiriy “Oʻtkan kunlar” romanida Rossiyaning Sharqqa nisbatan progressiv rol oʻynaganini birinchi boʻlib koʻrsatdi: Otabekning Shamayga sayohati haqidagi hikoyasida bu fikr yaxshi ifoda etilgan. Qodiriyning reabilitatsiya qilish uchun harakat boshlang va mana shuni dastak qilib oling”...

roʻyobi – bu inson uchun juda katta neʼmat ekaniga amin boʻladi. Bunday fojiaiy sahna Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” dramasida ham mavjud. Garchand asar qahramonlari Solih bilan Rahimaning nikoh toʻylari boʻlib oʻtgan boʻlsa ham, ular saodatli umr kechira olmaydi. Qarzga botishadi. Millat uchun toʻy-hashamlardagi oʻz moddiy quvvatini elga koʻz-koʻz qilishdek bir maʼnaviy maraz ikki yoshning hayotiga nuqta qoʻyadi. Qarzga botgan kuyov va kelin hayoti fojia bilan tuganchiga yetadi.



Bahodir KARIM, professor

Oʻzbek romanining maydonga keli-shida Abdulla Qodiriy juda muhim tarixiy missiyani bajardi. “Oʻtkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”dek muhtasham tarixiy romanlari orqali oʻzbeklar tarixini, urf-odatlarini, ijtimoiy va oilaviy muhitini tasvirladi. Mening tasavvurim boʻyicha, qozoq adabiyoti tarixida, xususan, qozoq adabiyotida tarixiy roman janri taraqqiyotida, qozoqlar hayotining qomusiy manzaralarini namoyon etishda Abay Qoʻnonboy oʻgʻli hayot yoʻlini vosita qilaraq xuddi shunday tarixiy missiyani mutafakkir sanʼatkor adib Muxtor Avezov bajardi.

Eʼtibor berilsa, har ikki adib va ularning qahramonlari ham yangilikka intildi. Tojir oʻlaroq dunyo kevgan, Semipalatinskka tijorat ishlari bilan borgan “Oʻtkan kunlar” romani qahramoni Otabek qaysidir maʼnoda ijtimoiy-siyosiy, maʼmuriy muhitdagi yangilanishlar tarafdori edi. Otabek bir oʻrinda majlis ahliga Shamay (Semipalatinsk) taassurotlarini soʻzlab beradi: “Shamayda ekanman, qanotim boʻlsa, vatanga uchsam... Shamayda oʻylagʻanlarim, oshiqqanlarim shirin bir xayol emish... Darhaqiqat, mozoristonda “hayya alalfalah” xitobini kim eshitir edi”. Bunda qiyos va havas bor. “Oʻtkan kunlar” romanini ingliz tiliga oʻgʻirgan amerikalik tarjimon Mark Riz bu obraz haqidagi oʻz tasavvurini: “Aniqki, Otabek – jadid... Otabek – bu Abdulla Qodiriy va uning dunyoga munosabati”, deb bayon qiladi.


Abdulla Qodiriyning dunyoga munosabatida jadidona kayfiyat mujassam edi. Taassufki, yangilik tarafdori boʻlgan Otabekning orzu-umidlari oʻy-xayoligicha qoladi. Yana bir muhim mulohaza: Otabek tijorat bilan borgan Shamayda Muxtor Avezov tavallud topadi, oʻqiydi. Bu joy Abayga ham begona emas... Qarang, Abdulla Qodiriy ham oʻz qahramonini bejiz ushbu taraqqiyotga erishgan makonga safar qildirgan emas. Bunda qandaydir sirli, ichki va izohlash qiyin boʻlgan maʼnaviy robitalar bor, deb oʻylayman.

Oʻzbek va qozoq xalqlari uzoq tarixdan to hozirga dovur yaqin qoʻshni, qon-qardosh, quda-anda boʻlib istiqomat qiladi. Bu ikki millatning tarixi, madaniyati, folklori, adabiyoti oʻzaro yaqin va gohida biri ikkinchisini toʻldirib ham keladi.

XX asr tongotariga nazar tashlansa, oʻzbek jadid adabiyoti bilan qozoq jadid adabiyoti oʻrtasida ham mushtarak jihatlar borligi, badiiy ijodda, xususan, Behbudiy, Abdulla Avloniy va Abay ijodidagi axloqiy konsepsiyalar, sheʼriyatda Abdulhamid Choʻlpon koʻngli bilan Magʻjon Jumaboyning erk, ozodlik, hurriyat borasidagi dard-u alamlar, mustamlakachilardan qutulish ilinjida yozgan bitiklari biri ikkinchisini toʻldiradi.

Darhaqiqat, ulkan adiblar bisotida nafaqat bitta xalq adabiyoti, balki insoniyat badiiy tafakkuri, jahon adabiy-maʼrifiy xazinasiga bebaho yombi-javohir oʻlaroq qoʻshiladigan asarlar, fikrlar, hikmatlar boʻladi. Shuning barobarida hamma zamonlarda millat allomalarining maʼrifattalab oʻquvchilar eʼtiborini ohanrabodek oʻziga tortib turadigan goʻzal insoniy fazilatlari-da boʻladi. Bunday adabiy shaxsiyatlarning hayoti ham, ijodi ham ibratga munosib, albatta.

XOTIRA AZIZ



QATAGʻON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi oʻtgan sonlarda).

Mulla Gʻaybulla Dadamuhammedov – (1886–1931) Turkistondagi taraqqiyparvarlardan, “Milliy ittihad” tashkiloti aʼzosi. Naman-ganda 1929-yil 11-aprelda qamoqqa olingan va Munavvar qori ishi yuzasidan Moskvada 45 yoshida 1931-yil 23-aprelda otib oʻldiril-gan. Mulla Gʻaybulla Dadamuhammedov oʻlimidan soʻng 1989-yil 20-aprelda oqlan-gan.

Said Ahroriy (Muhammad Said Abdurashidxoʻja Ahroriy) – 1895-yilda tavallud topgan. U Turkistondagi taraqqiyparvarlardan biri edi. “Milliy ittihad” tashkiloti aʼzosi, publitsist va adib boʻlgan. Turkiston ruslar tomonidan bosib olingach, asli xoʻjandlik boʻlgan ota-onasi avval Makkaga, soʻngra Istanbulga koʻchib borgan. Said Ahroriy Makka shahrida tugʻilgan. Istanbulda tahsil olgan. Oʻsha yerda Ismoilbek Gʻasprali va Mahmudxoʻja Behbudiy bilan uchrashgan.

Birinchi jahon urushida turklar tomonida turib qatnashgan va ruslarga asir tushgan. Fevral inqilobidan keyin asirlikdan qochib, Toshkentga kelgan va maktablarda dars bergan. “Turk soʻzi” gazetasi muharriri (1917). BXSRTuzilgach, Buxoro davlat nashriyoti rahbari, “Ozod Buxoro” gazetasi muharriri (1923), BXSRTning Ozarbayjondagi elchisi, Samarqanddagi moliya iqtisodiyoti texnikumi oʻqituvchisi boʻlib ishlagan.

“Milliy ittihad” tashkilotiga aʼzolikda ayblanib, 1930-yil 12-noyabrda qamoqqa olingan va Munavvar qori ishi yuzasidan Moskvada 36 yoshida 1931-yil 23-aprelda otib oʻldirilgan. Said Ahroriy oʻlimidan soʻng oqlangan.

Muhammadjon Sharifov – 1893-yili Buxoro shahrida tugʻilgan. Millati oʻzbek. 1935-yili NKVD organlari tomoni-dan hibsga olingan. RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi bilan ayblanib, aksilinqilobiy millatchi “Milliy ittihad” tashkiloti aʼzosi boʻlgani uchun 1938-yili 3-fevralda otuvga hukm qilingan. Hukm 1938-yili 7-fevralda ijro etilgan. Oradan yillar oʻtib, 1973-yil 6-dekabrda Muhammadjon Sharifov ishida jinoyat tarkibi yoʻqligi tufayli reabilitatsiya qilingan.

Asaka Ismayev – 1909-yili tugʻilgan. Millati oʻzbek. Mahalliy ziyolilarning oʻqi-mishli vakillaridan boʻlgan. Oʻrta mak-tabda oʻqituvchilik qilgan. Asaka Ismayev 1937-yil 7-fevralda hibsga olinib, RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortilgan. Milliy aksil-inqilobiy tashkilot “Milliy istiqlol”ga man-sublikda ayblanib, mehnat tuzatuv la-geriga hukm qilingan. 1944-yil 5-yanvarda Tatariston ASSR hududidagi qamoq-xonada vafot etgan. U 1959-yil 28-dekabrda reabilitatsiya qilingan.

Nayman Qosimxonov – 1898-yili tavallud topgan. Jizzax mashina trak-tor stansiyasida siyosiy boʻlim boshligʻi boʻlgan. 1919-yildan 1931-yilgacha “Mil-liy ittihad”, “Milliy istiqlol” va boshqa aksilinqilobiy tashkilotlar aʼzosi boʻlgan. Uning tashabbusi bilan Shahrizabz, Kosonsoy va boshqa joylarda aksilinqilobiy guruhlar tashkil etilgan. “Oʻzbekiston – mustamlaka mamlakatida paxtachilik ham mustamlaka xarakteriga ega” deganlikda ayblanib, siyosiy boʻlim boshligʻi vazifa-sidan chetlatilgan. Aksilinqilobiy saʼy-harakatlari bois 1933-yil 12-dekabrda 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan.

Rustambek SHAMSUTDINOV, tarix fanlari doktori, professor

Azizbek MAHKAMOV, tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA, muzey ilmiy xodimasi

(Davomi kelgusi sonda).



“E VOH”: HASRAT EMAS, HAYRAT VA HAVAS



Boshlanishi 1-sahifada.

– Aslida, Erkin Vohidov ijodi bilan allaqachon o'ziga haykal o'rnatib ketgan, – dedi ustoz Ibrohim G'afurov. – Uning milliy ozodlik, istiqloq, o'zlikni anglash g'oyalari yo'g'rilgan she'riyati, publiksistik asarlari, maqolalari 90-yillarda millatni uyg'otishga xizmat qilgani bilan g'oyat qadrldir.

Xalq o'z qahramonlarini unutmaydi. So'nggi yillarda ulug' shoir xotirasini e'zozlash va boyijodiymerosini o'rganish bo'yicha katta ishlar qilindi. Xususan, Marg'ilon shahrida ijodkorlar bog'i bunyod qilinib, sevimli adibimizning haykali va muzeyi ochildi, shoir nomida ijod maktabi tashkil etildi. Poytaxtimizning Adiblar xiyobonida u kishiga bag'ishlangan muhtasham yodgorlik qad rostladi.

Ijodiy festival ham ana shu ezgu ishlarning uzviy davomi

hisoblanib, shoir ijodini xalqimiz, xususan, yoshlar orasida targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shoir ko'p yillar oldin Matmusa tilidan o'z dastxati haqida shunday yozgan edi:

**U she'r yozib bir zamon,
Ko'p xatoga yo'l qo'ydi.
O'zi bo'lib pushaymon,
“E, voh” deya qo'l qo'ydi.**

Bugungi omon-omon zamonlarda esa bu dastxat hasrat xo'rsinigi emas, shoir ijodi muxlisari tilidan hayrat va havas xitobiga aylanib Bo'stonliq tog'lar uzra parvoz aylab yuribdi.

– Otajonimizning aziz xotirasini ardoqlash borasidagi e'tibori uchun Davlatimiz rahbaridan minnatdormiz, – dedi shoirning qizi Fozila Ibrohimova.

Festival doirasida shoirning o'lmas she'rlari jarangladi, kuy-qo'shiqlar yangradi. Ijod maktabi o'quvchilarining mazmundor chiqishlari,

“Nazm va navo” dasturi Bo'stonliqning shoirona manzarasiga yanada fayz kiritganday bo'ldi. Ma'lumki, faylasuf adibimiz o'z ta'bi bilan aytganda, “Ozod Sharafiddinov ligasi”da shatranj surardi. An'anaga ko'ra, ustoz xotirasiga bag'ishlab shaxmat musobaqasi bo'lib o'tdi.

Festivalda tasvirga olingan lavhalar va ko'rsatuvni “Jadid” gazetasining ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarida tamosh qilishingiz mumkin.

O'z muxbirimiz.



QR kodni skaner qiling va videolavhani Youtubeda ko'ring.

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Shu kunlarda tuxumbarak geografik ko'rsatkich sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgani rasmiy sahifalarda e'lon qilindi. Bir qarashda quvonchli va odatiy holat. Ammo bir guruh ziyolilar hamda ijtimoiy tarmoq faollari jarayonda qo'pol xatoga yo'l qo'yilganini ta'kidlamogda. Chunki Adliya vazirligi patentlagan taomning nomi tuxumbarak emas, yumurtabarak bo'ladi. Ularning farqi va o'xshashligi nimada?



Xato yozmasinlar o'zingnikilar!

Men diqqatingizni Bog'ot tumani Qipchoq qishlog'ida yashovchi Shohista Qurbonovning fikriga qaratmoqchiman:

– Boshqa hududlarni qo'ya turaylik, hatto, xorazmlik yoshlar ham tuxumbarak bilan yumurtabarakning farqiga bormayapti, – deb tashvish chekyapti opa. – Tuxumbarak azaldan qovun urug'idan tayyorlanib, yilda bir-ikki marta ilikuzildi paytida yeyilgan. Ayniqsa, tibbiy xususiyatlari uchun yangi kelin-kuyovlarga tavsiya etiladi. Uni tayyorlash uchun qovun urug'i yaxshilab yuvilgach, tekis sahnda quritiladi. Keyin kelida tuyilib, elakdan o'tkaziladi. Ba'zilar taomga tuyilgan kunjut, o'rik mag'zi ham qo'shadi.

Yumurtabarak esa tovuq tuxumi qo'shib pishiriladigan xamir ovqat. Mana shu ovqat mashhur.

Feysbukdoshimiz yozuvchi Salomat Vafoning posti ham mavzu mohiyatiga yaqinlashtiradi bizni:

“Ijtimoiy tarmoqlarda ikki-uch kundan beri Xorazmning yumurtabaraki haqida gap-so'z kuzatilmoqda. Uni “tuxumbarak” deb tan olishgan emish. Yumurtabarak Xorazmda hech qachon “tuxumbarak” deb aytilmagan. Hozir Toshkentdagi kafelarda menyularga xatolik bilan “tuxumbarak” deb yoziladi.

“Tuxumbarak” degan atama – “yumurtabarak” so'ziga almashtirilishi kerak. Shunda qilayotgan amallarimiz tarixiy haqiqatga to'g'ri bo'ladi”.

Vazirlikdagi ro'yxatga oluvchilar-u, restoran taomnomasi tuzuvchilar nega bu ikki xil taomni almashtirib yubordi?

Chunki Quyi Amudaryo mintaqasida o'simlik urug'iga “tuxum” deyiladi, urug'likka olingan hosilga esa “tuxumlik”. Alisher Navoiy ham “Tuxum yerga kirib chechak bo'ldi”

satrida lola tuxumini, ya'ni urug'ini nazarda tutgan edi.

Hazratning “Tarixi mulki ajam” asarida esa “yumurta” haqida ham so'z ketadi: “Oltundinkim ming gavhar bila mukallal qilib erdilarkim, har biri chumchuq yumurtqasicha...”

Demak, Xorazmda o'simlik urug'ining tuxum, qush tuxumining yumurta deb atalishiga tarixiy dalillar bor. Umuman olganda, qush tuxumining “yumurtqa” yoki “yumurta” deyilishi turkiy xalqlarga xos. Hozir ham bu so'z qoraqalpoqlarda “jumurtqa”, turkman, turk, ozarbayjon va o'zbeklarning o'g'iz lahjasida “yumurta”; qipchoq lahjasida esa “yumurtqa” shaklida qo'llaniladi.

Aslida “yumurta”, “yumurtqa” yumaloq degani. “Barak” deb yuqqa qilib yoyilgan narsaga aytiladi. “Varaq”, “bargak”, “barak” kabi so'zlar zamirida ham “yupqa” ma'nosi yotadi.

Katta avlod biladiki, yumurta so'zi 25-30 yil oldin ham keng iste'molda edi. Keyingi yillarda uning o'rini adabiy tildagi “tuxum” so'zi egallay boshladi. Bu holat og'zaki nutqdan yozma nutqqa ham o'ta boshladi. Bu taomlar nomlanishiga ham ta'sir o'tkazdi. Oqibatda, yumurtabarak bir yumalab tuxumbarakka aylanib qoldi. Mas'ullar esa ishga yuzaki yondashib yumurtabarakni tuxumbarak deb rasmiylashtirib yuborishdi.

Agar bu xatoga YUNESKO yoki boshqa xalqaro tashkilotlar, chet el idoralari yo'l qo'yganda “Ha endi bilmapti, murojaat qilib tuzattiramiz”, derdik. Lekin... Bu holatdan keyin Halima Xudoyberdiyevaning satiri yodga tushdi:

**Har harf yuragingni teshib o'tgaydir,
Xato yozmasinlar o'zingnikilar.**

Erpo'lat BAXT
Facebook

TILBILIM

Otning maykasi – terlik



Otning tanasidan chiqqan terni o'tkazmaslik uchun egar va bellik ostidan qo'yiladigan qalin namat yoping'ichni tilimizda tergi deyishgan. Bellik degani otning belini egar urmasligi uchun bel cho'qqisining ikki yonboshidan qo'yiladigan kigiz mato.

Tergi – qadimiy so'z. Uning shevalarda chirgi shakli ham bor. Lekin “Alpomish” dostonining izohli lug'ati'da chirgi so'ziga terlikdan keyin ot ustiga tashlanadigan yopinchiq deb izoh berilgan.

Shul zamonda soldi otning ustiga, Zarli-yu zarbobdan bo'lgan chirgini.

(“Alpomish”dan)

Mahmud Koshg'ariyda bu so'z terlik shaklida keladi va shunday izohlanadi: terlik – jazlik, egar ostidan qo'yiladigan namat. Demak tergi yoki terlik otning maykasi ekan-da.

Tilimizga rus tilidan kirgan erkaklarning ichki kiyimini bildiradigan mayka so'zining o'zbekchasini topishga qiynalamiz. Hamma bir ovozdan mayka deydi. O'zbek tilida bu so'zni ifodalaydigan biror so'zni topib bering desangiz, javob o'lmaysiz. Aslida tergi, terlik so'zlari mayka o'rnida bemaol qo'llansa bo'ladi. Chunki mayka ham badandagi terni ustki kiyimlarga o'tkazmaydi. To'ra Nafasov Qashqadaryo hududida ko'p qo'llanadigan terchil so'ziga “Badandagi terni tez shimib, so'rib oladigan kiyim, buyum” deb izoh bergan. Terchil ham maykaning o'zginasi emasmi?

Eshqobil SHUKUR

DIQQAT, TANLOV!

“Jadid” gazetasi tahririyati O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda “Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida maktab o'quvchilari orasida Vatanga mehr-muhabbat va sadoqat, milliy qadriyat va an'analimizga hurmat tuyg'ulari tarannum etilgan, shuningdek, ma'rifatparvar jadidlarning ibratli faoliyatini mustaqil tahlil va talqin qilishga bag'ishlangan

“JADID BOBOMGA MAKTUB” insholar tanlovini e'lon qiladi

TANLOV SHARTLARI:

- jadid ma'rifatparvarlaridan biriga xat tarzida yozilgan insho (daftar varag'ining 80 qatoridan oshmagan holda, xatosiz, husnixat bilan qo'lda yozilgan bo'lishi shart);
- har bir nomzod o'z inshosini shaxsini tasdiqlovchi hujjati nusxasi, yashash manzili, bog'lanish uchun telefon raqamini, maktabi va sinfini ko'rsatgan holda taqdim etishi shart;
- insholar 2025-yil 20-iyundan 20-avgustga qadar tahririyatning pochta manzili orqali qabul qilinadi. Belgilangan muddatdan so'ng yuborilgan ishlar ko'rib chiqilmaydi..



BAHOLASH:

Tanlovga taqdim etilgan insholar hakamlar hay'ati tomonidan 100 ballik tizim bo'yicha quyidagi mezonlar asosida baholanadi: mazmun-mantig'i, milliy qadriyat va an'analarga mosligi, jadidlar merosi haqida tasavvur darajasi va badiiy ifodasi – 30 ball; ijodiy yondashuv va o'ziga xoslik – 20 ball; til va uslub (lug'at boyligi, grammatik to'g'rilik, badiiy vositalardan foydalanish) – 20 ball;

ezgulikka undashi, zamonaviy dunyo bilan hamohangligi – 20 ball; noan'anaviy yondashuv – 10 ball.

Insholarni baholash jarayonida ko'chirmakashlik (yoki sun'iy intellekt ishtiroki) aniqlangan taqdirda, material tanlovdan olib tashlanadi va media vositalar orqali mazkur insho plagiat (adabiy o'g'rilik) ekanligi e'lon qilinadi.

TAQDIRLASH:

Tanlov g'oliblari diplom, jadidlar qalamiga mansub kitoblar jamlanmasi va quyidagicha pul mukofoti bilan taqdirlanadi:

- 1 ta birinchi o'rin – 5 000 000 (besh million) so'm;
- 2 ta ikkinchi o'rin – har biri 4 000 000 (to'rt million) so'mdan;

3 ta uchinchi o'rin – har biri 3 000 000 (uch million) so'mdan;

10 ta rag'batlantiruvchi o'rin – har biri 1 000 000 (bir million) so'mdan.

Tanlov g'oliblari va sovrindorlari Mustaqillik bayrami arafasida aniqlanadi va matbuotda, xususan, “Jadid” gazetasining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e'lon qilinadi.

Ularning insholari “Jadid” gazetasi sahifalarida chop etiladi.

Shuningdek, tanlovda birinchi o'rinni egallagan g'olib o'zi o'qiyotgan maktabda tanlov hay'ati a'zolari hamda taniqli ijodkorlar tomonidan tantanali ravishda taqdirlanadi va ushbu maktab kutubxonasiga 1000 ta badiiy, ilmiy-ommabop kitob taqdim etiladi.

Nomzodlar tomonidan tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan materiallar bo'yicha izoh yoki sharh berilmaydi hamda ular egalari qaytarilmaydi.

Tahririyat manzili: Toshkent shahri,

Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi 69-uy, “Jadid” gazetasi tahririyati.

Murojaat uchun telefon: (77) 199-22-10; (95) 795-75-09.

Elektron manzil: jadidgzt@gmail.com

Jadid
adabiy, ilmiy, ma'rifiy va ijtimoiy badiiyat gazeta

Muassislar:



O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI



“SHAHIDLAR XOTIRASI”
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Akmal Jumamurodov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi..

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 19 655

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 942

Lotin yozuvida – 11 713

Media kuzatuvchilar – 45 108

Buyurtma: G – 640.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,

Shayxontohur tumani,

Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@ext.uz

“Sharq” nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00

Bosishga topshirildi: 21:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz